

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT ShARQShUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

UDK 339.9 (5+7)

BBK: 65.5 (5+7)

A-49

Abdullayeva Malika Fazlidinovna

**MAVZU: “XXR VA LOTIN AMERIKA DAVLATLARI SAVDO
IQTISODIY ALOQALARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI
(BRAZILIYA, MEKSIKA MISOLIDA)”**

**5A231001 – Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi (Uzoq
Sharq mintaqasi)**

“Magistr” akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent B.D. Sadibekova

TOSHKENT – 2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-9
1-BOB. TASHQI SAVDONING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI.....	10-34
1.1. Tashqi savdoning mohiyati, rivojlanish bosqichlari va uning modellari.....	10-24
1.2. Globallashuv sharoitida jahon savdosining tarkibi: xususiyatlari va yo'nalishlari.....	25-34
2-BOB. XXRNING TASHQI SAVDO SIYOSATI VA UNING LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI BILAN SAVDO-IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	35-53
2.1. XXR va Lotin Amerikasi mamlakatlari o'rtasida diplomatik va savdo-iqtisodiy aloqalarining o'rnatilishi.....	35-42
2.2. XXR va Lotin Amerikasi mamlakatlari savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish bosqichlari hamda hamkorlik xususiyatlari tahlili.....	43-53
3-BOB. XXR VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI O'RTASIDAGI SAVDO-IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISH STRATEGIALARI.....	54-72
3.1. XXR va Meksika o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish tendensiyalari	54-60
3.2. XXR va Braziliya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish istiqbollari.....	61-72
XULOSA.....	73-76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	77-81

KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahon tajribasini e'tiborga olgan holda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning o'ziga xos va mos yo'lini tanlab, uni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda. Iqtisodiy islohotlar natijasida erishilgan muvaffaqiyatlar, tub ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, eng muhimi, islohotlarga bo'lgan yondoshuv jahon hamjamiyati tomonidan tan olinib, e'tirof etilmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tishning o'zbek modelida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, mamlakat eksport salohiyatini muttasil oshirib borish masalasi asosiy o'rinlardan birini egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "eksport korxonalarimiz faoliyatining eng muhim yo'nalishiga, butun iqtisodiyotimizning rivojlanish natijalarini baholash mezoniga aylandi"¹.

Iqtisodiyot tarkibida tub o'zgarishlarni amalga oshirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish, mehnat resurslarining oqilona bandligini ta'minlash, tarmoqlararo va hududiy nomutanosibliklarga barham berish ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga, eksport salohiyatini kengaytirish va eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushini muttasil oshirib borishga bog'liq.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlari muvaffaqiyati ko'p jihatdan jahon xo'jaligi tizimiga integratsiyalashishga, xalqaro mehnat taqsimoti va globallashtirish jarayonlariga maqsadga muvofiq moslashish orqali respublikamizning mavjud tabiiy-iqtisodiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga bog'liq. Bu jarayonda tashqi savdoni rivojlantirish, uning tovar va geografik tarkibini diversifikatsiyalash alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Keyingi vaqtda jahon bozorida narxi keskin tushib ketgan xom-ashyo resurslarini eksport qilish amaliyotidan imkon qadar tezroq qutilib, tayyor

¹I.A. Karimov. "Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish – asosiy vazifamizdir". //O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2006 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasi. // "Toshkent oqshomi", 2007 yil 13 fevral, № 30. – B.2-3.

raqobatbardosh mahsulotlar eksportini faol oshirish va bu mahsulotlar yetkazib beriladigan mamlakatlar geografiyasini yanada kengaytirishimiz kerak”².

XXR mavqeining oshishi jarayoni xalqaro munosabatlarning barcha tizimlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan, so'nggi yillarda jahon hamjamiyatida XXRsi o'zining tashqi savdo siyosatidagi ustunlik tomonlari, uning dunyo maydonidagi ahamiyatining ortib borishi bilan tavsiflanmoqda. XXRning xalqaro va iqtisodiy mavqei esa, uning globallashuv jarayonida faol ishtiroki orqali oshib bormoqda. Va buning isbotini biz mamlakatning iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda tutgan o'rniga qarab ko'rishimiz mumkin (bugungi kunda Xitoy dunyoning 2-iqtisodiyotiga aylandi).

Shunday qilib, XXR davlatining tashqi savdo siyosatidagi o'rnini batafsil o'rganish, uning dunyodagi jarayonlarga ta'sirini tadqiq qilish, shuningdek, mavjud xalqaro munosabatlar tizimida ushbu davlatning salohiyatiga va uning jahonning boshqa qit'asi mamlakatlari bilan savdo iqtisodiy hamkorligi masalalariga baho berish hozirgi vaqtda, ayniqsa dunyoda yangi integratsion birlashma tashkilotlarning paydo bolishida (BRIKS) muhim ahamiyat kasb etmoqda va aynan shu nuqtai nazaridan mazkur dissertatsiya ishining mavzusi benihoya dolzarb hisoblanadi.

Yuqoridagi maqsadga erishishda hududiy jihatdan yaqin bo'lmagan, qolaversa, har ikkala mamlakat ham umuman boshqa kontinentda joylashganligiga qaramasdan, o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va ularni geografik tarkibini diversifikatsiyalash nafaqat, O'zbekiston, balki, XXR uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xalqaro savdoning mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillar, tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri, eksport siyosati va tashqi savdo strategiyalarini ishlab chiqishning nazariy-uslubiy jihatlarini xorijlik iqtisodchi-olimlar – A. Smit³, D.

²I.A. Karimov. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning farovonligini yanada yuksaltirishdir I.A. Karimov. “O'zbekiston” – Toshkent., 2010 y. – B.64.

³A. Smit. “Xalq boyligining tabiyati va sabablari to'g'risida tadqiqotlar” 1985 y. – 245 b.

Rikardo⁴, E. Xeksher, B. Olin, V. Leontev, P. Samuelson, R. Vernon, M. Porter⁵, J. Saks, A. Marshall, P. Krugman⁶, D. Xiks, Dj.M. Keyns, F. Xayek va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Xitoy tashqi iqtisodiy faoliyatini zamonaviy rivojlantirish masalalari bilan bevosita XXR hukumati va iqtisodiy islohotlari arxitektori bo'lmish Den Syao Pin, xitoy iqtisodchi olimlari Li Szin Ven⁷, Lyu Goguan⁸, Li Ke⁹, va boshqalar shug'ullanib kelishgan.

Jahon xo'jalik tizimida yuz bergan geosiyosiy o'zgarishlar natijasida Markaziy Osiyo mamlakatlarining, jumladan O'zbekistonning jahon iqtisodiyotida tutgan o'rni sezilarli darajada oshdi. Buning natijasida esa, dunyo mamlakatlari va Xitoy o'rasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikning jahon xo'jalik tizimida tutgan o'rni, ular o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish masalalari, mintaqa mamlakatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar xorijlik iqtisodchilar e'tiborini o'ziga jalb eta boshladi.

Shu munosabat bilan jahonning rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar hamda mintaqaviy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish masalalari Rossiya iqtisodchi-xitoyshunos olimlaridan A.B. Ostrovskiy¹⁰, E.F. Avdokushin¹¹, Ye.P. Bajenov¹², M.V. Baranov¹³, Ya. M. Berger¹⁴, M. L. Titarenko¹⁵, Z. A. Muromseva¹⁶, S. S. Potapov¹⁷ va boshqalarni nomlarini atab o'tish lozimdir.

⁴ D.Rikardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi", Kembrij Univetsiteti, 1951. – B.133-149.

⁵ M. Porter "Davlatlarning raqobatdagi ustunligi", 1991 y. – 247 b.

⁶ Международная экономика - Алексей Киреев, часть - I, Москва, 2000 г. – 312 с.

⁷ Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность.//РАН ИДВ. – М., 2000 г, вып. № 9, - С.9-29.

⁸ Лю Гогун. Проблемы урегулирования экономической структуры Китая.// Проблемы ДВ – 2001 г, № 6, - С.64-70.

⁹ Ли Ке Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая.//Проблемы теории и практики управления. 2002 г, № 1, - С.63-67.

¹⁰ Островский А.В. «Состояние и перспективы строительства экономики КНР», КНР: политика, экономика, культура, под ред. Титаренко М.Л., М., 2007 г. - С.77.

¹¹ Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения, учебник, Юность, М., 2004 г. – 368 с.

¹² Баженов Е.П. «Китай и внешний мир» М, 2000 г. – 264 с.

¹³ Баранов М. Специальные экономические зоны Китая, М., 2002 г. – С.45-48.

¹⁴ Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая. - М.: Магистр, 2009 г. – 574 с.

¹⁵ КНР: политика, экономика, культура в 2007 г., М., 2008 г. – 407 с.

¹⁶ Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М.: ИДВ РАН, 2009 г. – 264 с.

Shu munosabat bilan, XXRning tashqi savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish tendensiyasining turli qirralari hamda undagi integratsion jarayonlarni yanada chuqurlashib borishi to'grisidagi muammolari bilan Rossiyaning bir qator iqtisodchi-xitoyshunos olimlaridan: A.B. Ostrovskiy¹⁸, E.F. Avdokushin¹⁹, Ye.P. Bajenov²⁰, M.V. Baranov²¹, Ya.M. Berger²², M.L. Titarenko²³, Z. A. Muromseva²⁴, S.S. Potapov²⁵ va boshqalarni nomlarini atab o'tish lozimdir.

O'zbekistonning jahon xo'jalik tizimiga integratsiyalashuvining asosiy yo'nalishlari, mamlakatimiz tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishning ilmiy-amaliy jihatlari, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish tendensiyalari – Alimov A.M., Ahmedov T.M., Arifxonov Sh., Bedrinsev A.K., Isadjonov, A., Kindalov V.V., Maxmudov E., Rasulev A.F., Sirajiddinov N., Trushin E.F., To'xlijev N.T., Hakimov F.X., Ergashev B., Yusupov A.S. va boshqalarning ilmiy ishlarida keng yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi - XXR va Lotin Amerika davlatlari savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish xususiyatlarini (Braziliya, Meksika mamlakatlari misolida) tahlillar yordamida o'rganib chiqish va ular orasidagi savdo aloqalarini rivojlantirish bo'yicha kerakli ilmiy asoslangan takliflar tayyorlashdan iborat.

Ilmiy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

- tashqi savdo bo'yicha turli iqtisodiy qarashlarni o'rganish va umumlashtirish asosida xalqaro savdoning mohiyatini yoritib berish;

¹⁷Потапов С.А. Внешнеэкономическая политика КНР. – М., 2001г. – 197 с.

¹⁸Островский А.В. «Состояние и перспективы строительства экономики КНР», КНР: политика, экономика, культура, 2007 г. под ред. Титаренко М.Л., - М., - С.77.

¹⁹Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения, учебник, Юность, - М., 2004 г. С.368.

²⁰Баженов Е.П. «Китай и внешний мир» - М, 2000 г. - С.87.

²¹Баранов М. Специальные экономические зоны Китая, - М., 2002 г. – С.67.

²²Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая. М.: Магистр, 2009 г. – 574 с.

²³КНР: политика, экономика, культура в 2007 г., - М., 2008 г. С-407.

²⁴Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М.: ИДВ РАН, 2009 г. – 264 с.

²⁵Потапов С.А. Внешнеэкономическая политика КНР. - М., 2001 г. – 248 с.

- tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishini tahlil qilish ko'rsatkichlarini bir tizimga keltirish;

- XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari dinamikasini tahlil qilish asosida unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;

- XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari tarkibini tahlil qilish va uni takomillashtirish yo'nalishlarini asoslab berish.

Ilmiy tadqiqot ishining ob'ekti etib, XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo aloqalari tanlab olindi.

Dissertatsiya ishining predmeti esa, XXR va Lotin Amerikasi davlatlari orasidagi tashqi savdoni rivojlantirish usullari, mexanizmlari va yo'nalishlari hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining nazariy-uslubiy asosi bo'lib ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, yirik iqtisodchi-olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy konsepsiyalar xizmat qildi. Shuningdek, tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Lotin amerikasi davlatlari statistik qo'mitasi ma'lumotlari, BRIKS tashkiloti ma'lumotlari va boshqa me'yoriy hujjatlardan keng foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- tashqi savdo bo'yicha turli iqtisodiy qarashlar chuqur o'rganib chiqilgan va ularni umumlashtirish hamda tizimga solish asosida xalqaro savdoning mohiyati yoritib berilgan;

- tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishini tahlil qilish ko'rsatkichlarini bir tizimga keltirishga urinishlar qilingan;

- XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari dinamikasini tahlil qilish asosida unga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirilgan;

- XXR va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida jahon bozoridagi kon'yunkturaviy

o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq ravishda tahlil qilingan va bu aloqalarni rivojlantirish imkoniyatlariga baho berilgan;

- XXR va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalarning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ishning amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy asoslangan takliflardan XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha maqsadli dasturlar ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Shuningdek, dissertatsiya ishi materiallaridan XXR va Lotin amerikasi davlatlari iqtisodiyotini o'qitish bilan bog'liq bo'lgan o'quv kurslarini o'qitishda ma'ruza materiallari sifatida foydalanish mumkin.

Dissertatsiya ishining tuzilishi - kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ilmiy tadqiqot ishining kirish qismida tadqiq etilayotgan mavzuning dolzarbligi, o'rganilganlik darajasi asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, uning yangiligi va amaliy ahamiyati yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishining "Tashqi savdoning nazariy va konseptual asoslari" deb nomlangan uning birinchi bobida tashqi savdo bo'yicha turli iqtisodiy qarashlarni o'rganish va umumlashtirish asosida xalqaro savdoning mohiyati hamda uning modellari yoritib berilgan, globallashtirish sharoitida jahon savdosining tarkibi, xususiyatlari, yo'nalishlari batafsil o'rganilgan va tahlil etilgan.

Ilmiy ishning 2-bobi "XXRning tashqi savdo siyosati va uning Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan savdo aloqalarining rivojlanish xususiyatlari" deb nomlanib, unda XXR va Lotin Amerikasi mamlakatlari o'rtasida savdo aloqalarining o'rnatilish holatlari, XXR va Lotin Amerikasi mamlakatlari savdo aloqalarining rivojlanish bosqichlari hamda hamkorlik xususiyatlari tahlillar yordamida aniqlashtirildi.

Magistrlik dissertatsiyaning 3-bobi “XXR va Lotin Amerikasi mamlakatlari o’rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish strategiyalari” deb nomlanib, unda XXR va Meksika o’zaro savdo aloqalarining rivojlanish tendensiyalari hamda Xitoy va Braziliya o’rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish istiqbollari izchillik bilan tahlil etilgan ko’rsatib berilgandir.

Ishning xulosa qismida olingan ilmiy xulosa, amaliy tavsiya va takliflar umumlashtirilgan.

1-BOB.TASHQI SAVDONING NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLARI

1.1. Tashqi savdoning mohiyati, rivojlanish bosqichlari va uning modellari

Ma'lumki, XVI-XIX asrlar davomida buyuk geografik kashfiyotlar, sanoat to'ntarilishi va yaxlit milliy davlatlarning vujudga kelishi tashqi savdo operatsiyalari hajmi va nomenklaturasini sezilarli kengayishiga sabab bo'ldi. Shu sababli ham xalqaro savdo nazariyalariylarini o'rganishga katta e'tibor qaratildi. Klassik siyosiy iqtisodning asoschilaridan biri shodland professori A. Smit o'zining "Xalq boyligining tabiyati va sabablari to'g'risida tadqiqotlar" deb nomlangan mashhur kitobida mamlakatlar o'rtasidagi savdoning nazariy modelini yaratishga katta e'tibor qaratadi, mamlakatlar geografik joylashuvining har xilligi natijasida u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo'lmasligi tufayli yuzaga keladigan xalqaro mehnat taqsimoti bu modelning asosini tashkil etadi.

Buyuk iqtisodchi ilgari surgan tamoyilda ratsional fikrga tayanuvchi xo'jalik sub'ektining maqsadga muvofiq muomala prinsiplari tashqi savdo sohasiga ko'chiriladi: tadbirkor o'z mamlakatidagi nisbatan, xorijdan past narxda tovar sotib olar ekan, o'z mamlakatida ma'lum ustunliklar natijasida ishlab chiqarish arzon tushadigan tovar tayyorlashni maqsad qiladi. Bunday vaziyatda davlatning xalqaro savdodagi roli eng kam darajaga pasaydi, tovarlar oqimini esa, bozordagi "ko'rinmas qo'l", ya'ni raqobat belgilaydi.

Shunday qilib, mehnat taqsimoti va mamlakatlarning o'zlari mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, keyinchalik, esa, ya'ni ichki ehtiyojlari qondirilgandan so'ng, bu tovarlarni boshqa mamlakatlarda kam sarf harajatlarga ega bo'lgan tovarlarga ayirboshlash o'zaro savdo qiluvchi mamlakatlarga resurslarni tejash hisobiga xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi. Demak, mamlakatlarni kamroq xarajatlar bilan biror bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi shu mamlakat uchun qo'shimcha foyda keltiradi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy va eng

rivojlangan ko‘rinishi tashqi savdo hisoblanadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar umumiy hajmining 80 %i savdoga to‘g‘ri keladi.

Har qanday mamlakat uchun tashqi savdoning roli nihoyatda muhimdir. J. Saksning fikricha, “Dunyodagi har qanday davlatning iqtisodiy muvaffaqiyati tashqi savdoda ko‘rinadi. Hozirgi davrgacha hech bir mamlakat jahon iqtisodiy tizimidan ajragan holda, sog‘lom iqtisodiyot hosil qila olgani yo‘q”²⁶.

Tashqi savdo xalqaro mehnat taqsimoti asosida paydo bo‘ladigan turli davlatlar tovar ishlab chiqaruvchilari o‘rtasidagi aloqalarning bir shakli bo‘lib, u mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro iqtisodiy bog‘liqlikni namoyon qiladi.

Mamlakatlar iqtisodiyotidagi informatsion texnologiyalar inqilobi ta’siri ostida ro‘y berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar, sanoat ishlab chiqarishining ixtisoslashuvi va birlashuvi (kooperatsiya) milliy xo‘jaliklarning o‘zaro hamkorligini kuchaytirmoqda. Bu esa, xalqaro savdoning faollashuviga imkon yaratmoqda. Shu bilan birga xalqaro savdo ishlab chiqarishga nisbatan, tezroq o‘smoqda. Tashqi savdo aylanmasini taxlil qilish shuni ko‘rsatadiki, jahonda ishlab chiqarish 10 %ga ko‘payganda jahon savdosi 25-30 %ga o‘sib borayotganini kuzatish mumkin²⁷.

“Tashqi savdo” deganda bir mamlakatning boshqa mamlakat bilan haq to‘lanadigan olib kirish, ya’ni, import va haq to‘lanadigan olib chiqish, ya’ni, eksportdan iborat savdosi nazarda tutiladi.

Tashqi savdo faoliyati tovar ixtisoslashuviga ko‘ra tayyor mahsulotlar savdosi, mashina va uskunarlar savdosi, xom-ashyo savdosi va xizmatlar savdosiga bo‘linadi.

Dunyodagi barcha mamlakatlarning haq to‘lanadigan tovar aylanmasining yig‘indisi xalqaro savdo deb ataladi.

Tashqi savdo tushunchasining tor doiradagi ma’nosi ham mavjud bo‘lib, masalan, sanoati rivojlangan mamlakatlarning tovar aylanmasi yig‘indisi, rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlar tovar aylanmasi yig‘indisi va x.k.

²⁶ Международная экономика - Алексей Киреев, часть - I, Москва, 2000 г. – 325 с.

²⁷ Trade and Development Report, 2008, UN va UNCTAD Handbook of Statistics, 2008 yil ma’lumotlari.

Barcha davlatlar oldida tashqi savdo bo'yicha o'z milliy siyosatini tanlash muammosi yuzaga keladi va bu mavzudagi tortishuvlar ikki asr mobaynida davom etib kelmoqda.

Jahon xo'jalik tizimida globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi natijasida milliy iqtisodiyotlarning bir-biriga bog'liqligi ortib, tashqi iqtisodiy faoliyat barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omiliga aylanib bormoqda. Bunday sharoitda alohida olingan mamlakat faqat o'z ichki imkoniyatlariga tayanib ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda biror bir jiddiy natijalarga erishishi mushkul hisoblanadi.

Garchi so'nggi yillarda xalqaro iqtisodiy aloqalarda tovar eksportiga nisbatan investisiyalarni bevosita xorijga chiqarish yuqori sur'atlarda o'sayotgan bo'lsa-da, jami jahon xo'jalik aloqalarining 4/5 qismi xalqaro savdo hissasiga to'g'ri keladi. Bu, eng avvalo, xalqaro savdoning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati va xalqaro iqtisodiy aloqalardagi o'rni bilan izohlanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyot rivojlanishiga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

- milliy iqtisodiyotning resurslar bazasi kengayadi va ichki bozor torligiga barham beriladi;

- milliy xo'jaliklarda takror ishlab chiqarish jarayonlari intensivlashadi: ommaviy ishlab chiqarishni tashkil etish uchun imkoniyat yuzaga keladi, uskunalarning yuklanganlik darajasi oshadi, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish samaradorligi o'sadi;

- jamg'arish va sanoatlashuv imkoniyatlari kengayadi, iqtisodiy o'sish sur'atlari jadallashadi, tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi, pirovard natijada mehnat unumdorligining o'sishi yuz berib, kishilar daromadlari ko'payadi;

- eksport hajmining o'sishi yangi ish o'rinlarining barpo etilishiga olib keladi;

- mamlakatning xalqaro ixtisoslashuv darajasi ortadi va h.k.

Xalqaro savdoning xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida tutgan oʻrni esa quyidagilar bilan belgilanadi:

Birinchidan, jahon xoʻjalik aloqalarining barcha shakllari – chetga kapital chiqarish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnika hamkorligi xalqaro savdo orqali amalga oshadi.

Ikkinchidan, tovarlar xalqaro savdosining rivojlanishi pirovard natijada xalqaro xizmatlar almashinuvi darajasini belgilab beradi.

Uchinchidan, xalqaro savdoning rivojlanishi mintaqaviy integratsiya jarayonlari jadallashuvining muhim sharti hisoblanadi va xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuviga olib keladi.

Toʻrtinchidan, xalqaro savdoning jadal rivojlanishi xorijiy investisiyalar va xalqaro hisob-kitoblarni ragʻbatlantiradi.

Xalqaro savdoning mohiyati, uning sabablari koʻplab iqtisodchilar eʼtiborini oʻziga jalb etib kelgan. Xalqaro savdoning mohiyati, undan kutiladigan moddiy farovonlik masalalarini dastlab merkantilistlar²⁸ izohlab berishga harakat qilganlar. Merkantilistlar mamlakat boyligining asosini oltin (pul) tashkil etadi deb hisoblaganlar va ularning tashqi savdo nazariyalari shu gʻoyaga asoslangan.

Merkantilistlar fikricha, tashqi savdo mamlakatdagi oltin miqdorini saqlab qolish va koʻpaytirishga qaratilmogʻi lozim. Shu sababli mamlakat aholisi turmush farovonligini yaxshilash uchun imkon qadar mahsulotlarni koʻproq eksport qilishi va kamroq import qilishi zarur, eksport va import oʻrtasidagi tafovut esa milliy boylikning oʻsishi hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda davlat eksportni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashi va importni cheklashi lozim. Ayni vaqtda “ilk” merkantilistlar va “kech” merkantilistlar qarashlarida biroz tafovut mavjudligini taʼkidlab oʻtish lozim.

Ushbu maktab vakillarining tashqi savdo nazariyasini rivojlantirishdagi xizmatlari shundaki, ular birinchilardan boʻlib tashqi savdo muammolariga

²⁸Merkantilizm maktabining asosiy namoyandalari Tomas Mun (1571-1641), Charlz Davenant (1656-1687), Djeyn Baptist Kolbert (1623-1687), Uilyam Petti (1623-1687) hisoblanadi.

e'tibor qaratdilar, uning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyatini ta'kidladilar, eksport va importga sarflanadigan xarajatlarning muayyan nisbatini asoslab berdilar.

Mumtoz siyosiy iqtisod asoschilaridan biri shotland professori A. Smit o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqotlar" deb nomlangan mashhur kitobida mamlakatlar o'rtasidagi savdoning nazariy modelini yaratishga katta e'tibor beradi.

Mamlakatlar geografik joylashishining har xilligi natijasida u yoki bu tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari bir xil bo'lmasligi tufayli yuzaga keladigan xalqaro mehnat taqsimoti bu modelning asosini tashkil etadi. Buyuk iqtisodchi ilgari surgan konsepsiyada "sog'lom fikr"ga tayanuvchi xo'jalik sub'ektining maqsadga muvofiq muomala tamoyillari tashqi savdo sohasiga ko'chiriladi: tadbirkor o'z mamlakatiga nisbatan xorijdan past narxda tovar sotib olar ekan, o'z mamlakatida ma'lum ustunliklar natijasida ishlab chiqarish arzon tushadigan tovar tayyorlashni maqsad qiladi. Bunday vaziyatda mamlakatning xalqaro savdodagi roli eng kam darajaga kamaytiriladi. Tovarlar oqimini esa bozordagi "ko'rinmas qo'l", ya'ni raqobat belgilaydi.

Shunday qilib, mehnat taqsimoti va mamlakatlarning o'zlari mutlaq ustunlikka ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi, keyinchalik, ya'ni ichki ehtiyojlar qondirilganidan so'ng bu tovarlarni boshqa mamlakatlarda kam sarf-xarajatlarga ega bo'lgan tovarlarga ayirboshlash o'zaro savdo qiluvchi mamlakatlarga resurslarni tejash hisobiga xarajatlarni qisqartirish imkonini beradi.

Ingliz iqtisodchisi D. Rikardo "Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi"²⁹ asarida A. Smit konsepsiyasini rivojlantirar ekan, mutlaq ustunlik yanada umumiyroq modelning xususiy holi ekanligini ko'rsatib berdi. Bu model "nisbiy ustunlik" nazariyasi nomini oldi.

²⁹ David Ricardo. The Principles of Political Economy and Taxation. – Cambridge University Press, 1951, - P. 133-149.

A. Smit mumtoz yo'lining davomchisining g'oyalariga ko'ra, alohida olingan mamlakatda hamisha shunday bir tovar topiladiki, uni ishlab chiqarish, jahondagi o'rtacha xarajatlar darajasida boshqa barcha tovarlarni ishlab chiqarishga nisbatan samaraliroqdir, ya'ni nisbiy ustunlik ana shu tovarni ishlab chiqarishda eng kam xarajatlarga ega bo'linganda yuzaga chiqadi.

Tovar ayirboshlashning konkret hollarini nazariy ifodalashda aniqlikka erishish uchun D. Rikardo bir qator shartlarga rioya qilish kerak deb hisoblaydi. Bu shartlarning eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi: ishchi kuchining xalqaro harakatchan emasligi, qo'shimcha chiqimlar (transport va boshqalar) va texnik yangiliklar kiritish natijasida xarajatlarning o'zgarishini e'tiborga olmaslik. U iqtisodiy adabiyotlarda klassik bo'lib qolgan Angliyada mato va Portugaliyada vino ishlab chiqarishni misol qilib keltiradi.

Rikardo keltirgan misolga ko'ra, Angliyada mato ishlab chiqarish bir yilda 100 kishi mehnatini talab qiladi. Bu matoni Portugaliyaga sotib, Angliya undan vino sotib oladi. Vinoni mamlakat ichkarisida ishlab chiqarish esa qo'shimcha 120 kishini ishlab chiqarishga jalb etishni talab etar edi. Shunday qilib, Angliyaga vinoni sotib olish foydali hisoblanadi. Ayni vaqtda Portugaliyada shuncha miqdordagi mato va vinoni ishlab chiqarish uchun muvofiq ravishda 90 va 80 kishi talab etiladi. Portugaliyada mato ishlab chiqarish Angliyaga nisbatan arzon, ammo vino ishlab chiqarishga nisbatan qimmat. Shu sababli Portugaliya uchun vino ishlab chiqarish va uni Angliya matosiga almashtirish foydali hisoblanadi. Agar bir xil miqdordagi mato va vinoni har bir mamlakat o'zi uchun va eksport uchun ishlab chiqaradi, deb faraz qilsak va ularni o'zaro taqqoslasak, tashqi savdoning afzalligini oson isbotlash mumkin.

Keltirilgan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, ishlab chiqarish Portugaliyada samarali bo'lib, mutlaq afzallik nazariyasidan kelib chiqiladigan bo'lsa, Angliyada ishlab chiqarishni to'xtatish va barcha mahsulotlarni Portugaliyadan sotib olish lozim. Ayni vaqtda mamlakatda barcha ishlab chiqarishni yopish mumkin emas. Shu sababli Angliya xorijda eng arzon bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishni to'xtatadi. Mazkur misolda bunday

mahsulot vino bo'lib, Portugaliyada vino ishlab chiqarish uchun Angliyadagi xarajatlarning 67 %i sarflanadi, xolos. Vino ishlab chiqarishdan ozod bo'lgan kishilar mato ishlab chiqarish bilan shug'ullana boshlaydilar hamda uni ichki ehtiyojlarni qondirish va vino sotib olish uchun yetarli miqdorda ishlab chiqara boshlaydilar.

Mato ishlab chiqarish ham Angliya nisbatan arzon, ammo Portugaliya vino ishlab chiqarishga ixtisoslashishni afzal biladi. "Uning (Portugaliya) uchun o'z kapitalidan vino ishlab chiqarishda foydalanish afzalroq, chunki Portugaliya o'z kapitalining bir qismini vinochilikdan mato ishlab chiqarishga o'tkazish evaziga ishlab chiqaradigan matoga nisbatan Angliyadan ko'proq mato sotib olishga erishadi"³⁰.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tashqi savdo har ikkala mamlakat uchun ham foydali hisoblanadi. Agar mamlakatlar tashqi bozorga chiqmasalar Portugaliyada vino va mato ishlab chiqarishga sarflanadigan jami xarajatlar 170 birlikni, Angliyada 220 birlikni tashkil etadi. Ixtisoslashuv va tashqi bozorga chiqqandan so'ng Portugaliyada ishlab chiqarish xarajatlari 160 birlikka, Angliyada 200 birlikka teng bo'ladi. Ikkala mamlakatda ilgari ehtiyojlarni qondirish uchun 390 mehnat birligi talab qilingan bo'lsa, ixtisoslashuvdan so'ng 360 mehnat birligi kerak bo'ladi, xolos. Shunday qilib, tashqi bozor iste'mol qilinayotgan tovarlarga sarflanayotgan xarajatlarni minimallashtiradi.

Nisbiy afzallik nazariyasi mehnatning qiymat nazariyasiga asoslanadi. Hozirgi kunda nisbiy afzallik muqobil xarajatlar orqali aniqlanadi.

D. Rikardoning konsepsiyasiga ingliz faylasufi, sotsiologi va iqtisodchisi Dj. Styuart Mill tomonidan katta hissa qo'shildi. U XIX asrning o'rtalarida o'zining "Siyosiy iqtisod asoslari" asarida ayirboshlash bahosi talab va taklif qonuni bo'yicha belgilanishini, bunda mamlakat o'zining umumiy eksporti qiymatiga teng miqdorda umumiy importga haq to'lash imkoniyatiga ega bo'lishini isbotladi.

³⁰ Рикардо Д. Соч., Т.1. – 217 с.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida xalqaro savdodagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida tabiiy afzalliklarning xalqaro mehnat taqsimotidagi roli sezilarli darajada pasaydi. Shved olimi E. Xeksher va daniyalik B. Olin qayta ishlash sanoati mahsulotlari bilan savdo qilish sabablarini izohlab beruvchi nazariyani yaratdilar (XX asrning 20-30 yillari). Ushbu nazariyaga muvofiq turli mamlakatlar mehnat, kapital va yer bilan turli darajada ta'minlangan bo'lib, ularga bo'lgan talab ham bir-biridan farq qiladi.

Masalan, mehnat resurslariga boy bo'lgan mamlakatda kapital yetishmovchiligi mavjud bo'lib, mehnat nisbatan arzon bo'ladi va, aksincha, mehnat resurslari kam bo'lib, kapitalga boy bo'lgan mamlakatda kapital nisbatan arzon bo'ladi. Shu sababli birinchi mamlakatning mehnat sig'imi yuqori bo'lgan, ikkinchi mamlakatning kapital sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotni eksport qilishi manfaatli hisoblanadi. Xeksher-Olin nazariyasi xalqaro savdoda kuzatiladigan ko'plab qonuniyatlarni aniq izohlab beradi. Haqiqatdan ham mamlakatlar ishlab chiqarish xarajatlarining asosiy qismini o'zlarida mo'l bo'lgan resurslar tashkil etadigan tovarlarni eksport qiladilar.

Ko'rib o'tilgan model metropol (sanoati rivojlangan) va mustamlaka mamlakatlar (agrar – xom-ashyo yetkazib beruvchi) o'rtasidagi savdoning rivojlanish jarayonini tushuntirishda ko'proq foydali bo'ldi.

Biroq, AQSh – G'arbiy Yevropa – Yaponiya “uchburchagi”dagi tovar oqimlarini tahlil etishda Xeksher-Olin konsepsiyasi bir qator qiyinchiliklar tug'dirdi va ziddiyatlarga sabab bo'ldi. Bunga ko'plab yirik iqtisodchilar, jumladan, Nobel mukofoti laureati amerikalik iqtisodchi V. Leontev ham o'z e'tiborini qaratgan. Gap shundaki, Leontevning hisob-kitoblariga qaraganda, 1947 yilda kapital serob hisoblangan AQSh kapital ko'p talab qiladigan tovarlarni emas, balki mehnat ko'p talab qiladigan tovarlarni eksport qilgan.

Leontev paradoksi atrofida yuzaga kelgan tortishuvlar ishlab chiqarish omillarini chuqurroq tahlil etish va bir qator yangi xalqaro savdo nazariyalarining paydo bo'lishiga olib keldiki, ularning har biri tovar ayirboshlashning u yoki bu jihatiga urg'u beradi.

XX asrning o'rtalarida (1948 yil) amerikalik iqtisodchilar P. Samuelson va V. Stolper Xeksher-Olin nazariyasini yanada takomillashtirdilar. Ishlab chiqarish omillari va texnikaning bir xilligi, sof raqobat va tovarlarning to'liq safarbarligi sharoitida xalqaro almashuv mamlakatlar o'rtasida ishlab chiqarish omillari narxlarini tenglashtiradi. Mualliflar o'z konsepsiyalarini D. Rikardo modeli asosida Xeksher-Olin nazariyasini to'ldirish orqali asoslaydilar va savdoga nafaqat o'zaro manfaatli almashuv, balki mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi tafovutni qisqartirish vositasi sifatida ham qaraydilar.

Xalqaro savdoning zamonaviy konsepsiyalarini ikki asosiy turga ajratish mumkin.

Xeksher-Olin modeli tarafdorlari bu modelni ishlab chiqarish omilari qatoriga texnik yangiliklar yoki ishchi kuchi malakasi kabi yangi omillarni kiritish yo'li bilan aniqlashtirishga intiladilar (I. Kravis, D. Kising).

Bu konsepsiyaga qarshilar esa o'z e'tiborlarini firma ichkarisidagi tashqi operatsiyalarda katta o'ringa ega bo'lgan tarkibiy qismlarga qaratishadi. Amerikalik iqtisodchi S. Lindert rivojlangan mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayirboshlashning kengayishini import qiluvchi mamlakat iste'mol tarkibining bosh kompaniya joylashgan mamlakatning ana shunday iste'mol tarkibiga yaqinligi bilan tushuntiradi.

Xalqaro savdoning yana bir keng tarqalgan nazariyasi, ya'ni mahsulot hayotiy davri konsepsiyasining mualliflari, amerikalik Ch. Kindelberger, R. Vernon, L. Uels rivojlangan mamlakat tomonidan amalga oshiriladigan tovar ekspansiyasining asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatadilar. Bu konsepsiyaga ko'ra, ishlab chiqarilgan mahsulot bilan, eng avvalo, rivojlanish darajasi yaqinroq bo'lgan iqtisodiy hamkorlarning milliy bozori to'ldiriladi, keyin bu tovar rivojlanayotgan mamlakatlar bozoriga surib chiqariladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar esa, o'z navbatida, bu tovrani ishlab chiqarishni o'zlashtirib olganlaridan so'ng, nisbatan past narxda rivojlangan mamlakatga bu davrning tashabbuskoriga eksport qiladi.

XX asrning 60-yillarida amerikalik iqtisodchi R. Vernon mahsulotning hayot sikli nazariyasini ilgari surdi. Bu nazariyada R. Vernon tayyor mahsulotlar xalqaro savdosini ularning hayot bosqichlari orqali tushuntirib berishga harakat qildi. Mazkur nazariyaga ko'ra, mahsulotning hayot sikli to'rtta bosqichni o'z ichiga oladi: joriy etish, o'sish, pishib-etilish va pasayish.

Birinchi bosqichda mamlakatda (ko'p hollarda rivojlangan mamlakat) paydo bo'lgan ehtiyojga javob sifatida yangi mahsulot yaratiladi. Shu sababli birinchi bosqichda yangi mahsulotni ishlab chiqarish kichik seriyali xarakterga ega bo'lib, ishlovchilardan yuqori malaka talab qiladi va asosan ishlab chiqarish ushbu mahsulotni yaratgan mamlakatda jamlanadi, ishlab chiqaruvchi esa qariyb monopol mavqega ega bo'lib, mahsulotning kichik qismi tashqi bozorga chiqariladi.

O'sish bosqichida mahsulotga bo'lgan talab oshadi, uni ishlab chiqarish kengayadi va asta-sekin boshqa mamlakatlarga ham tarqala boshlaydi. Mahsulot standartlashadi, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida raqobat kurashi kuchayadi va uning eksporti hajmi oshib boradi.

Pishib-etilish bosqichida yirik seriyali ishlab chiqarish ustuvor o'ringa ega bo'ladi, raqobat kurashida narx omili birinchi o'ringa chiqadi va bozorlarning kengayishi hamda texnologiyalarning tarqalishiga qarab mahsulotni yaratgan mamlakat raqobat afzalliklariga ega bo'lmay qoladi. Ishlab chiqarish asta-sekin rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'cha boshlaydi, chunki bu mamlakatlarda arzon ishchi kuchidan standart ishlab chiqarish sharoitida samarali foydalanish mumkin.

Pasayish bosqichiga o'tish darajasiga qarab mahsulotga bo'lgan talab, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda, pasaya boshlaydi, ishlab chiqarish hajmi qisqaradi, mahsulot ishlab chiqarish rivojlanayotgan mamlakatda to'planadi va mahsulotni yaratgan mamlakat sof importerga aylanadi.

Mahsulotning hayot sikli nazariyasi ko'plab tarmoqlar evolyusiyasini haqqoniy aks ettiradi, ammo xalqaro savdo rivojlanishi tendensiyalarini to'la izohlab bera olmaydi. Ko'plab tovarlar (hayot sikli qisqa tovarlar, transport

xarajatlari yuqori tovarlar, tor doiradagi potensial iste'molchilarga mo'ljallangan sifat bo'yicha keskin tabaqalashgan tovarlar va boshqalar) mahsulotning hayot sikli nazariyasiga muvofiq kelmaydi.


Xeksher-Olin modeli va kompaniyalarning tashqi savdo faoliyati nazariyalarini AQShlik mashhur tadqiqotchi M. Porter birlashtirishga harakat qildi. Uning fikricha, zamonaviy tashqi savdoning rivojlanishi ishlab chiqarish omillari, xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar talabi, firma strategiyasi va raqobat muhitiga bog'liq. Bularning barchasi bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatib, hukumat siyosati va kutilmagan hodisalarni hisobga olgan holda tizimning unsurlari sifatida yaqqol ko'rinadi.

1991 yilda amerikalik iqtisodchi M. Porter "Davlatlarning raqobatdagi ustunligi" nomli tadqiqotini nashr qildi. Bu tadqiqotda yangi yondashuv asosida xalqaro savdo muammolari batafsil tahlil qilingan.

M. Porterning nazariyasiga muvofiq xalqaro bozorda mamlakatlar emas, balki firmalar raqobatlashadilar. Shu sababli firma raqobat afzalliklarini qanday shakllantirishi va unda mamlakatning rolini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Xalqaro almashuvda mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga "raqobatbardoshlik rombi" deb ataluvchi to'rtta bir-biriga bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. Ishlab chiqarish omillari sharoitlari (mamlakatda asosiy ishlab chiqarish omillarining mavjudligi);
2. Miqyos samarasini keltirib chiqaruvchi ichki talab sharoitlari;
3. Bir-biriga bog'liq va bir-birini qo'llovchi tarmoqlarning (klasterlarning) mavjudligi;
4. Firma tarkibi strategiyasi va uning ichki tarmoq raqobatidagi o'rni.

Shuningdek, M. Porterning "beshta kuch modeli" davlatlararo muayyan bir sohadagi raqobat kurashi dinamikasini tavsiflaydi. Quydagi 1.1.1 – chizmada o'yinchilar doirasi (bozor ishtirokchilari) tasvirlangan. Ular birgalikdagi intilishlari orqali sohani shakllantirishadi. Va huddi shu chizmada sohaning umumiy daromadlilikini belgilovchi raqobat kuchlari ochib beriladi:

“Mayklning beshta kuchi” modeli asosida sohani tahlil qilish³¹

Bu beshta kuch quydagi tarzda o‘zaro faoliyat yuritadi:

1. Soha ichidagi kompaniyalar bozardagi ulushi uchun kurash olib boradilar, bunda iste'molchilarni raqobatchilardan tortib olib, o‘z tomonlariga og‘dirib olishga intiladilar. Bitta kompaniyaning faol harakati boshqasining javoban munosabatiga to‘qnash keladi. Bu esa o‘z navbatida bozordagi boshqa kompaniyalarning javoban harakatiga sabab bo‘ladi. Raqobatlashuvchi kompaniyalar soni ko‘p sohalarda eng kuchli raqobat kuzatiladi va bu sohadagi daromad normasi kamayib boradi.

Raqobat kurashining bu sikliga quydagi raqobatlashuvchi kuchlar ta’sir qiladi:

2. Yetkazib beruvchilar (tovar ishlab chiqarilishida zaruriy hissasini qo‘shadigan tashkilotlar va shaxslar) shu darajada yirik (qudratli) bo‘lishi mumkinki, ular o‘z manfaatlarini ilgari surib kompaniyalar bilan bitim tuzishdan foyda ko‘rishi mumkin. Yoki ular o‘z manfaatlariga erishishda jamoaviy kurash uchun o‘z harakatlarini birlashtirishi mumkin. Ta’sir ko‘rsata oladigan yetkazib

³¹ M. Porter “Davlatlarning raqobatdagi ustunligi”, 1991 y. – 257 b.

beruvchilar o'z yetkazmalarining narxini oshirib, pirovardida, ularning tovaridan foydalanuvchi kompaniyalar daromadini kamaytirish mumkin.

3. Xaridorlar (shu korxona mahsulotini sotib oluvchilar) individual ravishda yoki birgalikda kompaniya narx siyosatiga ta'sir qila oladigan miqdorda mahsulotlarni sotib olishi mumkin. Bu ham tovar narxi tushishiga olib kelishi mumkin.

4. Bozordagi salohiyatli yangi o'yinchilar faoliyat yuritayotgan kompaniyalar bozordagi ulushini tortib olishi mumkinligi jihatidan xavf tug'diradi. Buni xaridorlarga muayyan foyda (masalan, chegirma) berish orqali yoki xaridor va yetkazib beruvchilar preferensial bitim tuzish orqali amalga oshirish mumkin.

5. Kompaniya tovariga xaridorning ehtiyojini qondiradigan boshqa sohadagi o'rinbosar tovar ham xavf tug'diradi. Masalan, avtomobil tashilmalarini xavo va temir yo'l tashilmalari bilan almashtirish mumkin.

Mazkur beshta kuchning birgalikdagi o'zaro faoliyati raqobat muhitini shakllantiradi va unda har bir raqobatlashuvchi kompaniya o'z manfaatlarini himoya qilish uchun raqobatchilari harakatiga munosib javob qaytarishi kerak.

XXI asrda taraqqiyot maqsadlari yangicha iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy shartlarda amalga oshirilyapti. Rivojlanish jarayoni ikki asosiy kuch bilan belgilanmoqda: globallashuv (jahondagi mamlakatlarning davom etib boruvchi integratsiyasi) hamda lokallashuv.

Iqtisodiyotning globallashuviga ilmiy-texnik taraqqiyotning tez o'sishi, o'zgarishi va xo'jalik faoliyatning liberallashuvi sabab bo'lgan. Globallashuv jarayoni 80-90 yillarda, avvalo, bir qator jarayonlarning rivojlanishi evaziga yaqqol ko'zga tashlandi. Ular qatoriga: xalqaro infratuzilmaning jadal rivojlanishi va global telekommunikatsiya tizimining shakllanishi, xalqaro savdo, ishlab chiqarish tizimlarida, sifat o'zgarishlari, transmilliy korporatsiyalarning va xalqaro moliya markazlarning yuqori sur'atlarda o'sishi kabi jarayonlarni kiritish mumkin.

Informatsion tizim – “Internet” ning rivojlanishi nafaqat yangi kommunikasion tizimga, balki moliyaviy operatsiyalarni, marketingni, reklamani amalga oshirishda, shuningdek, mutaxassislar malakasini oshirishda ham zaruriy vositaga aylangan.

Bu o'zgarishlar xalqaro infratuzilmada iqtisodiyotning makro va mikro darajadagi globallashuviga olib keldi. Globallashuvning mikro darajasi kompaniyaning milliy chegaralardan tashqarida ishlab chiqarishni va bozorni kengaytirish strategiyasi bilan belgilanadi.

Globallashuvning makro darajasida milliy iqtisodiyotni xalqaro xamjamiyatga boshlovchi kuchlarning birligi tushuniladi. Bu kuchlarga birinchi darajada to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar, texnologiyalarning almashinuvi, tovarlar va xizmat savdosining o'sishi misol bo'la oladi.

XX asrning 80-yilarida P. Krugman, K. Lankaster va boshqa bir qator iqtisodchi-olimlar xalqaro savdo nazariyasiga muqobil nazariyani taklif etdilar. Bu nazariya miqyos samarasiga asoslanadi. Bu samaraning mohiyati shundan iboratki, muayyan texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etish sharoitida uzoq muddatli o'rtacha xarajatlar ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining o'sishi bilan qisqarib boradi, ya'ni ommaviy ishlab chiqarish natijasida iqtisod qilish imkoniyati yuzaga keladi.

Ushbu nazariya mualliflari fikricha, ko'plab mamlakatlar ishlab chiqarish omillari bilan deyarli bir xil nisbatda ta'minlanganlar. Shu sababli ular ommaviy ishlab chiqarish samarasi mavjud bo'lgan tarmoqlarga ixtisoslashishlari maqsadga muvofiq. Bu holatda ixtisoslashuv ishlab chiqarish hajmini oshirish va mahsulotni kam xarajatlar sarflagan holda ishlab chiqarish imkoniyatini beradi. Miqyos samarasi amalga oshishi uchun bozor yetarli darajada katta bo'lishi lozim. Bunda esa xalqaro savdo katta rol o'ynaydi, chunki u tovarlarni sotish bozorini kengaytirish imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda miqyos samarasini amalga oshirish, odatda sof raqobat tamoyillarining buzilishiga olib keladi, chunki u ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi va firmalarning yiriklashuvi bilan bog'liq. Bu esa o'z

navbatida bozor tarkibining o'zgarishiga olib keladi. Natijada ular yoki oligopolistik yoki monopolistik raqobatga asoslangan bozorlarga aylanadilar.

Shunday qilib, xalqaro savdo nazariyalarini umumlashtirish natijalari shuni ko'rsatadiki, uning mohiyatini yoritib berishga qaratilgan klassik qarashlar ham, zamonaviy qarashlar ham tashqi savdo munosabatlari rivojlanishi jarayonida vujudga keladigan barcha savollarga javob bera olmasa-da, mamlakatlarning jahon bozorida o'ziga xos o'rin egallashlarini ta'minlovchi afzallik jihatlari aniqlashga imkon beradi.

1.2. Globallashuv sharoitida jahon savdosining tarkibi: xususiyatlari va yo'nalishlari

Jahon xo'jalik tizimida globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda har qanday mamlakatning xalqaro mehnat taqsimoti imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, globallashuv jarayonlariga maqsadga muvofiq moslashishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali aholi turmush darajasini yaxshilab borishi ko'p jihatdan eksport hajmini oshirishiga hamda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining yuqori bo'lishiga erishishiga bog'liq.

Fan-texnika taraqqiyotining jadallashuvi natijasida, xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashuvi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning doimiy va uzluksiz bo'lishini ta'minladi. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyatning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolining oshishiga olib keldi. Shu munosabat bilan tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishini tahlil qilish, uni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Tashqi iqtisodiy aloqalarni samarali boshqarish, muhim savdo qarorlarini qabul qilish uchun tashqi iqtisodiy aloqalarni, eng avvalo, tashqi savdo rivojlanishini ifodalovchi kompleks ko'rsatkichlar zarur bo'ladi.

Bugungi kunda tashqi savdo rivojlanishini tahlil qilish uchun qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Tashqi savdoning geografik tarkibi, tashqi savdo aylanmasi, eksport kvotasi, import kvotasi, to'lov balansi, tashqi savdo balansi, tashqi savdo kamomadi, tashqi savdo kvotasi, mintaqaning xalqaro mehnat taqsimotiga qo'shilish darajasi, xalqaro raqobatbardoshlik indeksi, dinamika qatorlari va boshqalar ana shular jumlasidandir. Mazkur ko'rsatkichlarning har biri tashqi iqtisodiy faoliyat rivojlanishining u yoki bu jihatini ifodalaydi.

Ma'lum bir davlatning tashqi savdo kvotasi (eksport va import yarim qiymatining YaIM qiymatiga bog'liqligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{\text{tashqi savdo kvotasi}} = \frac{0.5 * (E + I)}{YaIM} * 100 \%$$

Bu yerda: I – import qiymati; E – eksport qiymati; YaIM – yalpi ichki mahsulot hajmi hisoblanadi.

Bu ko'rsatkich mamlakat iqtisodiyotining tashqi savdoga qay darajada bog'liqligini ifodalaydi. Odatda yirik mamlakatlarning tashqi savdo kvotasi unchalik katta bo'lmaydi, kichik mamlakatlar esa tashqi savdoga kuchliroq bog'langan bo'ladi. Masalan, AQShning tashqi savdo kvotasi 2000-2010 yillarda 12-15 %ni tashkil etgan. Bu eng avvalo shu bilan izohlanadiki, AQSh iqtisodiyoti majmuaviy tarzda rivojlangan, aholining to'lov qobiliyati yuqori va ichki iste'mol bozori juda yirik hisoblanadi. Qator kichik mamlakatlarda tashqi savdo kvotasi 100 %dan ko'proqni tashkil etadi (ko'p hollarda reeksport hisobiga). Boshqacha qilib aytganda tashqi savdo aylanmasi YaIM hajmidan ko'proqni tashkil etadi. Bunday mamlakatlar jumlasiga Singapur, Niderlandiya, Gonkong va boshqalarni kiritish mumkin.

Tashqi savdoning geografik tarkibi - mamlakat tashqi savdosining hududlar bo'yicha yo'nalishi yoki taqsimlanishidir, ya'ni bunda ham mamlakat mintaqalari (hududiy tarkibi), ham mamlakatning tashqi savdo hamkorlari nazarda tutiladi. Shunday ekan, mamlakatimiz tashqi savdosining geografik tarkibi e'tibor beradigan bo'lsak, mustaqillikni qo'lga kiritgach, O'zbekiston o'zing an'anaviy va yangi eksport tovarlari bilan jahondagi ko'plab mamlakatlarning bozorlariga chiqa boshladi. O'z o'rnida eksportning geografik taqsimoti quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{e.g.t.} = \frac{E_{m.m.}}{E_j}$$

Bu yerda: $K_{e.g.t.}$ – eksportning geografik tarkibi koeffisienti; $E_{m.m.}$ – muayyan mamlakatga chiqarilgan eksport hajmi; E_j – jami eksport hajmini ko'rsatadi.

Mamlakat importi va tashqi savdosining geografik tarkibi ham xuddi shu tarzda aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatlarning asosiy savdo hamkorlarini aniqlashda, mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari yo'nalishlarini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat tashqi savdosi rivojlanishini tahlil qilishda mintaqalarning jami savdo aylanmasi, eksport va import tarkibidagi ulushini aniqlash muhim rol o'ynaydi:

$$K_{m.e.u.} = \frac{M_e}{E_j}$$

Bu yerda: $K_{m.e.u.}$ – alohida mintaqaning jami eksportdagi ulushini ifodalovchi koeffisient; M_e – alohida mintaqaning eksport hajmini ko'rsatadi E_j – jami eksport hajmini ko'rsatadi.

Mazkur ko'rsatkich alohida olingan mintaqalarning jami eksportdagi, importdagi va tashqi savdo aylanmasidagi salmog'ini aniqlash va mamlakat eksport salohiyatining mintaqalar bo'yicha qanday taqsimlanganligiga baho berish imkoniyatini yaratadi.

Tashqi savdo aylanmasi - mamalakatning barcha amalga oshirgan eksport va import operatsiyalarining yig'indisini o'zida aks ettiradi. Ya'ni bunda uning hajmi (import uchun alohida, eksport uchun alohida) va uning aholi jon boshiga qanchadan to'g'ri kelishi ko'zda tutiladi. Tashqi savdo aylanmasi ikki usulda hisoblanadi: 1) mutlaq miqdorda; 2) nisbiy miqdorda. Mamlakat jahon bozorida qanchalik faol qatnashsa, uning tashqi savdo aylanmasi shunchalik katta bo'ladi.

Eksport kvotasi - tashqi bozorda sotilgan tovarlardan olingan valyutani shu tovarlarni ishlab chiqarish, transportga yuklash tashish xarajatlariga nisbatidir. Agar tovar kreditga sotilgan bo'lsa, eksportning samaradorligi pasayadi, ammo mutlaqo kreditsiz tovarlarni tashqi bozorda sotishning iloji yo'q. Shunday ekan, yuqori eksport kvotasi milliy iqtisodiyotning tegishli mahsulotlar bilan ta'minlanishi, tovarlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligini oshiradigan eng qulay va foydali indikatoridir. Agar bu tayyor mahsulotlarga, ishlanishi yuqori darajada bo'ladigan mahsulotlarga, yuqori texnologik xizmatlarga tegishli bo'lsa samara yanada yuqori bo'ladi. Umuman, tashqi savdo rivojlanishini tahlil qilishda eksport kvotasi (eksport qiymatining YaIM qiymatiga bog'liqligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_e = \frac{E}{YaIM} * 100 \%$$

Bunda: E – eksport qiymati; YaIM – yalpi ichki mahsulot qiymatini anglatadi.

Import kvotasi – keltirilgan tovarlarning ichki sharoitlarga munosabati, ya'ni, ularni sotib olish va chegaragacha olib kelish uchun barcha xarajatlarni o'zida aks ettiradi. Bunda tashqi savdo kamomadini aniqlash mumkin. Ya'ni tovar olib kelinishi (import) tovarlar olib chiqilishi (eksport) dan oshib ketsa tashqi savdo kamomadi kuzatiladi. Import kvotasi esa quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi:

$$K_i = \frac{I}{YaIM} * 100 \%$$

Bunda: I – import qiymati, YaIM – yalpi ichki mahsulot qiymatini ko'rsatadi.

To'lov balansini mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarining butun hamma sohasini tahlil qilib, hosil qilingan integratsiya ko'rsatkichlari keltirib chiqaradi, ya'ni to'lov balansi statistik hisobot bo'lib, u ma'lum muddatdagi barcha savdoni va moliyaviy oqimlarni o'zida aks ettiradi. U savdo balansi, xizmatlar va tijorat to'lovlari, kapital va kreditlar harakati, oltin valyuta rezervlari harakati balanslaridan tashkil topadi.

Tashqi savdo balansi – muayyan vaqt davri uchun mamlakat eksporti va importi qiymatlari o'rtasidagi nisbatdir, ya'ni importga va eksportga ketadigan moliyaviy xarajatlardan tashkil topadi. Bu ko'rsatkich mamlakat tashqi iqtisodiy aloqalarining muhim belgisi bo'lib, eksport importdan yuqori bo'lganda aktiv holatni, import eksportdan yuqori bo'lganda esa passiv holatni ifodalaydi. Lekin uning ijobiy yoki salbiy bo'lishi ko'p omillarga bog'liq.

Ma'lum bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotiga qo'shilish darajasi (mamlakatning tashqi savdo aylanmasi qiymatining YaIM qiymatiga bog'liqligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{XMT} = \frac{\text{tashqi savdo aylanmasi}}{YaIM} * 100 \%$$

Bunda: XMT – xalqaro mehnat taqsimotini anglatadi.

Ma'lum bir davlatning raqobatbardoshlik indeksi (davlatning eksporti va importi farqining tashqi savdo aylanmasi qiymatiga bog'liqligi) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{x.r} = \frac{E - I}{\text{tashqi savdo aylanmasi}} * 100 \%$$

Bunda: x.r – xalqaro raqobatbardoshlikni anglatadi.

Shuningdek, tashqi savdo rivojlanishini tahlil qilish usullarida dinamik qatorlarga e'tibor beradigan bo'lsak, u quyidagicha aniqlanadi:

1. Eksport dinamikasi: $K_{\text{eksport dinamikasi}} = \frac{E_1}{E_0} * 100 \%$

E_1 – joriy yil;

E_0 – bazis yil.

2. Import dinamikasi: $K_{\text{import dinamikasi}} = \frac{I_1}{I_0} * 100 \%$

I_1 – joriy yil,

I_0 – bazis yil.

3. Tashqi savdo dinamikasi: $K_{\text{tashqi savdo dinamikasi}} = \frac{TS_1}{TS_0} * 100 \%$

Bunda: TS_1 – joriy yildagi tashqi savdo aylanmasi; TS_0 – bazis yildagi tashqi savdo aylanmasini ko'rsatadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mamlakat eksport va import hajmiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda tashqi savdo rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlarini ham joriy, ham taqqoslama narxlarda tahlil qilish talab etiladi. Bu esa mamlakatga olib kirilayotgan yoki mamlakatdan chiqarilayotgan tovarlarni ham jismoniy hajmi o'zgarishini, ham narx o'zgarishini kuzatish imkonini beradi.

Erkin savdo yoki proteksionizm siyosatini tanlash yoki uni qanday bo'lsa shu holda saqlash, oldingi asrlarga xos bo'lgan siyosat edi. Hozirgi davrga kelib, bu ikki siyosat o'zaro bog'likda va mamlakatlarda yuzaga kelayotgan holatlarga

qarab amalga oshirilmoqda. Ammo, ko‘p hollarda bu bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan bog‘liqlik erkin savdo tamoyilining bosh rolini bajaradi.

Erkin savdo siyosatiga birinchilardan bo‘lib, A. Smit tomonidan ta’rif berilgan. A. Smit “Ayirboshlash har bir mamlakat uchun foydalidir, har bir mamlakat o‘zida mavjud salohiyatiga qarab, bunda mutloq ustunlikka ega bo‘lish imkoniyati mavjudligini” ta’kidlagan.³² A. Smitning tahlillari klassik nazariyaning asosi va erkin savdo siyosatining har qanday shakli uchun asos bo‘lib kelgan.

Mazkur muhokamalarni oxirigacha davom ettirish natijasida, shunday xulosalarga kelish mumkin: agar, davlat xorijdan kerakli narsalarning barchasini, eng arzon narxda va cheklanmagan miqdorlarda kiritishi mumkin bo‘lsa, unda o‘ziga zarur barcha narsalarni xorijdan olib kirish, uning manfaatlari uchun xizmat qiladi. Uning o‘zi esa, sotish uchun biron narsa ishlab chiqaradimi? Hech narsa buni kafolatlamaydi. U holda, sotib olgan tovarlari uchun mablag‘ni qayerdan oladi va qay tariqa uni to‘laydi? Demak, mutloq ustunlik nazariyasi “boshi berk ko‘cha” ga olib kiradi.

D. Rikardo “Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi” (1817 yil) nomli ishida “boshi berk ko‘cha”dan o‘zining klassik nazariyasini yaratdi. U xalqaro ixtisoslashuv mezonlarini ajratgan holda, davlatlar uchun qanday holatlarda davlatlararo ayrboshlash manfaatli ekanligini ko‘rsatib berdi.

Har bir davlat uchun ustunlik qilgan yoki kuchsizligi nisbatan kamroq bo‘lgan sohaga ixtisoslashish manfaat keltiradi. Ular muhokamalarda va ustunliklar taqqoslanishi nazariyasi yoki prinsipida o‘z aksini topdi.

D. Rikardoning fikricha, xalqaro ayirboshlash barcha davlatlar uchun muhim va manfaatlidir, ayrboshlash esa, barcha uchun foydali bo‘lgan narx zonalarini aniqlaydi.

Djon Styuart Mill o‘zining “Siyosiy iqtisod asoslari” (1848yil) ishida qanday narxda ayirboshlash amalga oshirilishini ko‘rsatdi. Millning fikricha,

³²Теория международных отношений - П.А. Цыганков, Москва Учеб.пособие 2003 г. – 590 с.

ayirboshlash narxi talab va taklif qonuniga binoan, har bir davlatning yalpi eksport miqdori yalpi import miqdorini qoplaydigan darajada belgilanadi. Millning muhim xizmatlaridan biri - uning “Xalqaro narx qonuni” yoki “xalqaro narx nazariyasi” dir. “Xalqaro Narx qonuni”ning ta’kidlashicha, shunday narx mavjudki u davlatlar orasidagi tovar ayirboshlashni optimallashtiradi. Bu bozor narxi talab va taklifga bog‘liq.

Klassik burjua iqtisodiyotining vakili - Gotfrid Xaberlarning fikricha, “nafaqat, mehnatga balki, ishlab chiqarishning barcha omillariga e’tiborni qaratish lozim”. Xalqaro Savdo oqimini nima bilan aniqlanishi va uning tarkibini Eli Xeksher va Bertil Olin o‘zlarining zamonaviy qarashlarida aks ettirganlar. Ular nisbiy ustunlik tushunasini kuyidagicha izoxlaganlar: u yoki bu davlatning ma’lum bir tovarlarga ixtisoslashishi ularning ishlab chiqarish omillariga egalik darajasiga boglik. E. Xeksher va B. Olin “Narxlarning ishlab chiqarish omillariga tenglashtirish” teoremasini ilgari surdilar³³.

Tashqi savdo nazariyasi Amerika iqtisodchisi V. Leontevning “Leontev paradoksi” nomli ishida yanada rivojlandi. Paradoks shundaki, V. Leontev Xeksher-Olin teoremasidan foydalanib Amerika iqtisodi urushdan keyingi davrda kapitalga nisbatan mehnatni ko‘proq talab qiladigan ishlab chiqarishga ixtisoslashganini ko‘rsatdi. Boshqacha aytganda, AQSh eksporti importiga nisbatan ko‘proq mehnat talab va kamroq kapital talabdir. Bu xulosa AQSh iqtisodiyoti haqidagi oldingi barcha fikrlarga, tamoman teskaridir. Umumiy fikrga ko‘ra, AQSh iqtisodiyotida doimo kapital ortiqcha edi va Xeksher-Olin teoremasiga ko‘ra, AQSh capital talab tovarlarni import emas, eksport qilishlari kerak edi.

Keyingi yillarda V. Leontev ixtirosi keng rezonans oldi. Turli davlatlarning ko‘plab iqtisodchilari “Leontev paradoksini” tushuntirib bu mavzuda tortishdilar. Natijada nisbiy ustunlik nazariyasi yanada rivojlandi. Unga texnik rivojlanish va uni taqsimlanishining teng emasligi, mablag‘larni

³³Теория международных отношений - П.А. Цыганков, Москва Учеб. пособие 2003 г. – 590 с.

firmadan tashqarida iqtisod qilish, davlatlardagi ish haqining farqi va boshqa tushunchalar kiritildi.

XX asrning ikkinchi yarmidan xalqaro savdo tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. 1950-1994 yillar orasidagi davrda xalqaro savdo oboroti 14 barobar o'sdi. G'arb mutaxassislarining fikricha 1950 va 1970 yillar oraligidagi davrni xalqaro savdoning "oltin asri" deb aytish mumkin. Aynan shu davrda jahon eksporti yiliga urtacha 7 %ga o'sdi. Ammo 70-yillardayoq u 55ga tushdi va 80-yillarda yana kamaydi. 80-yillarning oxirida jahon eksporti sezilarli ravishda jonlandi (1988 yilga 8,5 %) ³⁴.

Xalqaro savdoning barqaror o'sishiga qator omillar ta'sir ko'rsatdi:

- xalqaro mehnat taqsimoti va ishlab chiqarishning baynalmilalashuvining rivojlanishi;
- informasion texnologiyalar inqilobi;
- jahon bozorida transmilliy korporatsiyalarning faoliyati;
- xalqaro savdoning GATT (JST) faoliyati orqali tartibga solinishi (erkinlashtirilishi);
- xalqaro savdoning erkinlashtirilishi, ko'plab davlatlarning importni son jixatdan cheklashni bekor qiluvchi va bojlarni keskin qiskartiruvchi rejimga o'tishlari, erkin savdo xududlarining tashqil topishi;
- savdo-iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi: mintakaviy to'siqlarning olib tashlanishi, umumiy bozorlar, erkin savdo xududlarining tashqil etilishi;
- sobiq mustamlaka davlatlarning mustaqillikka erishishlari. Ular orasidan tashqi bozorga yo'naltirilgan iqtisodiyot modelini tanlagan "Yangi industrial davlatlarning" ajralishi ³⁵.

Yuqoridagi nazariyalarni kengroq ko'rib chiqadigan bo'lsak, XX asrning birinchi choragida D. Rikardoning "nisbiy ustunliklar" nazariyasida o'zgarishlar yuz berib, u D. Xeksher-Olinning ishlab chiqarish omillari nisbati bo'yicha

³⁴ Теория международных отношений - П.А.Цыганков, Москва Учеб. пособие 2003 г. – 390 с.

³⁵ Теория международных отношений - П.А.Цыганков, Москва Учеб. пособие 2003 г. – 390 с.

yangi klassik modeliga aylandi. Rikardoning nazariyasi faqat har bir mamlakat ishlab chiqarish xarajatlari boshqa mamlakatlarga qaraganda kamroq bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashishi kerakligiga asoslanar edi. Shved iqsodchilari Eli Xeksher bilan Bertil Olin faqat xarajatlar darajasinigina emas, balki ularning tuzilishini ham hisobga olish zarurligini asoslab berdi. Chunki, ishlab chiqarishning xususiyatiga bog'liq holda kapital, material, energiya va mehnat sarflari ham xar hil bo'ladi. Ishlab chiqarishning sermehnat turlari arzon ishchi kuchi ortiqcha bo'lgan mamlakatlarda, energiyani ko'p talab qiladigan ishlab chiqarishlar esa energiya resurslariga boy mamlakatlarda joylashtirilishi kerak va hokazolar. Xeksher-Olining (bundan keyin XO nazariyasi) xalqaro savdo modeli Rikardoning "Nisbiy ustunliklar" nazariyasini inkor etmaydi, balki uni yanada mukammallashtiradi va aniqlashtiradi.

Agar, mamlakatdagi ishchi kuchi miqdori bilan boshqa omillar o'rtasidagi nisbat boshqa mamlakatlaridagiga qaraganda yuqori bo'lsa, bunday mamlakat ortiqcha ishchi kuchiga ega deb hisoblanadi.

Agar mahsulotning qiymatida ishchi kuchiga qilingan xarajatlar ulushi boshqa mahsulotlarning qiymatidagiga qaraganda ortiq bo'lsa bu mahsulot sermehnat mahsulot deb baholanadi. Xalqaro savdoning tuzilishini tushuntirib beradigan XO nazariyasi savdo aloqalari o'rnatilgunga qadar narxlardagi xalqaro farqlarning sabablariga bag'ishlangan maxsus bo'limdan boshlanadi. Nisbiy chiqimlar farqlanishining ishlab chiqarish omillarining o'zaro nisbatidir. Modomiki Ukrainada ko'ylak 2 kg shakarga tushar ekan, bu hol birinchi navbatda shu bilan izoxlanishi kerakki, demak Ukrainada shakar ishlab chiqarishda unumli foydalaniladigan omillar O'zbekistonga nisbatan ko'p va ko'ylak ishlab chiqarishda unumli foydalaniladiganga nisbatan kam. Aytaylik, "yer" shakar ishlab chiqarishda unumliroq foydalaniladigan omil, "mehnat" esa, ko'ylak ishlab chiqarish uchun unumliroq foydalaniladigan omil. Shuningdek, hamma chiqimlarni yer va mehnat sarfidan iborat qilib ko'rish mumkin deb tahmin qilaylik (masalan, shakar uchun zarur o'gitlarni ishlab chiqarishga, huddi shuningdek, gazlama ishlab chiqarishga ham ma'lum miqdorda yer va mehnat

sarflash kerak). Shunda agar, Ukraina shakar eksport qilib, ko'ylaklar import qilsa, XO nazariyasiga ko'ra, bu hol Ukrainada ishlov berishga yaroqli yer ko'proq bo'lib, mehnat taklifi muayyan darajada taqchilligi tufayli yuz beradi.

XO nazariyasiga ko'ra, xuddi shu narsa savdo aloqalari o'rnatilguniga qadar mavjud bo'lgan narxlar o'rtasidagi farqni tushintirib beradi. Ana shu nazariyaga muvofik ishlab chiqarish omillari bilan nisbatan ta'minlanishdagi xamda ulardan foydalanish tavsifidagi farqlar savdo aloqalari o'rnashganidan keyin Ukrainadan ko'ylak emas, balki shakar eksport kilinishiga (shakar emas, balki ko'ylaklar import kilinishiga) sabab bo'ladi.

2-BOB. XXRNING TASHQI SAVDO SIYOSATI VA UNING LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI BILAN SAVDO SAVDO-IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

2.1. XXR va Lotin Amerikasi mamlakatlari o'rtasida diplomatik va savdo-iqtisodiy aloqalarining o'rnatilishi

Jahon globallashuv sharoitida XXRning tashqi siyosatini ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash, hozirgi bosqichda barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu davlat salohiyatini aniqlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan yangi asrning boshida XXR iqtisodiy rivojlanishida xalqaro integrasion jarayonlarning o'rni va roli muhim bo'lib, xususan, ushbu jarayonlarda mazkur davlat, o'z o'rnini topishi ham bag'oyat muhimdir.

XXR ning jahon iqtisodiyotida va xalqaro hamjamiyatdagi mavqeining kundan-kunga oshishini kuzatib borar ekanmiz, ushbu jarayon boshqa dunyo mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib bormoqda. Shu sababdan, so'nggi yillarda jahon hamjamiyatida XXR ning tashqi siyosiy ustuvorliklari, uning dunyo maydonidagi pozitsiyasini mustahkamlashga yordam bermoqda.

Hozirgi kunda XXRning xalqaro maydonda iqtisodiy va siyosiy tomondan mavqei ortib, u jahon globallashuv va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

Lotin Amerikasi kontinentida Xitoydagi Sin sulolasi hukumati bilan ilk diplomatik munosabatlarni o'rnatgan birinchi davlat – bu Peru davlati bo'lib, bu voqea 1874 yilda yuz bergan.

1949 yilda XXR tashkil topgandan so'ng, Xitoy Lotin Amerikasi davlatlari bilan diplomatik va iqtisodiy munosabatlarni hozirgi kungacha davom ettirib kelmoqda. XXRning o'sha davrlardagi Lotin Amerikasi davlatlari bilan tovar aylanmasi agar, 1950 yilda atigi 1,9 mln. AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, oradan 10 yil o'tib, ya'ni 1960 yilga kelib u, 39,1 mln. AQSh dollariga yetgan (2 barobarga ortgan)³⁶.

³⁶ В.А. Теперман КНР - ЛА, «Большой прорыв» журнал Латинская Америка № 9 2007 г.

XXRsi siyosiy izolyatsiyadan faqatgina 1960 yilda chiqdi. Shu orada Lotin Amerikasi mamlakatlaridan biri, sotsiyalistik rivojlanish tuzumidagi Kuba Tayvan bilan munosabatlarni uzib, XXRsini, ya'ni kontinental XXRni tan olgan. Bu xodisa iqtisodiy hamkorlikning o'sish sur'atlariga va Lotin Amerikasi bilan savdo-sotiq hajmi ko'rsatkichlariga ham ta'sir qildi: savdo-sotiq hajmi 1965 yilga kelib, 353.1 mln. AQSh dollarni tashkil etdi, biroq 1970 yilga kelib esa, u keskin yana 145.8 mln. AQSh dollargacha qisqardi. Sobiq Sovet Ittifoqi va XXRsi orasidagi munosabatlar keskinlashgan davrda, Sobiq Sovet Ittifoqi tuzumi bilan bir tuzumdagi Kuba bilan munosabatlar ancha buzilgani hamda "madaniy inqilob" oqibatida, XXR iqtisodiyotida yuzaga kelgan muammolar XXR va Lotin Amerikasi munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsatdi³⁷.

Lekin, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 26-sessiyasidan keyin, vaziyat tubdan o'zgardi, ya'ni Gayana, Kuba, Meksika, Peru, Trinidad, Tobago va Ekvador mamlakatlari XXRsini BMTga qabul qilish va Tayvanni chiqarib yuborish uchun ovoz berdilar. Argentina, Barbados, Kolumbiya, Panama va Yamayka mamlakatlari esa ushbu masalada betaraf qoldilar.

XXRsini BMTdagi yagona qonuniy mamlakat deb tan olgan davlatlarga shu yilda Peru, 1972 yilda Argentina, Meksika, Gayana va Yamayka, 1974 yilda Braziliya, Venesuela, Trinidad va Tobago, 1976 yilda Surinam, 1977 yilda Barbados. 1980 yilda Kolumbiya va Ekvador davlatlari qo'shildilar³⁸.

XXRsi foydasiga hal bo'lgan bunday o'zgarishlarga bir necha sabablar bor edi: ulardan bittasi - shu tariqa Lotin Amerikasi davlatlari BMT Havfsizlik Kengashining doimiy a'zosi bilan aloqa o'rnatdilar, undan keyin, XXR va AQSh o'rtasida munosabatlarning tiklanishi natijasida, 1972 yilda AQSh prezidenti Richard Niksonning XXRga tashrifi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda bu Amerika liderining XXRga birinchi tashrifi ekani ta'kidlandi.

³⁷ www.moftec.gov.cn va XXRning bojxona statistika ma'lumotlari.

³⁸ Латин Америка - в современной мировой политике, М., Наука 2009 г. – 425 с.

Bundan tashqari, XXR rahbariyatining ba'zi doktrinalari samara bera boshladi. Bu davrga kelib, Lotin Amerikasi qit'asining siyosiy doiralarida va jamoatchilik o'rtasida, XXRsi o'rnatilgan tartib-qoidalarini tushunib, ularni qabul qilish boshlandi. Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, XXR va Lotin Amerikasi davlatlari manfaatlarining mushtarakligi to'g'risidagi tezis shu kunga qadar faol qo'llanilib kelinmoqda.

1970 yillardayoq, XXRning barcha dunyo davlatlari bilan munosabatlarining asosiy prinsiplari belgilandi. Bunday vaziyatda mintaqadagi davlatning siyosiy va mafkuraviy yo'nalishiga qaramay, iqtisodiy hamkorlikka pragmatik yondoshish birinchi o'ringa chiqdi. Xitoycha yondoshuvning pragmatizmi shunda namoyon bo'ldiki, Lotin Amerikasida u amalga oshdi, va bu albatta Pekinning obro'si oshishiga olib keldi.

Den Syao Pin boshchiligidagi XXR hukumati 1978 yilda mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Bunda shior juda oddiy bo'ldi - "Madaniy inqilob yo'qolsin!"

XXR qadam-baqadam, sinov va xatolar yo'li bilan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan o'zaro munosabatlarida "to'rtta modernizatsiya" siyosatini va iqtisodiy manfaatlarini siyosiy manfaatlardan ustun qo'yish prinsipini qo'lladi. Shu davrdan boshlab, XXR Taybey bilan diplomatik munosabatlarni davom ettirayotgan davlatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan voz kechdi.

XXR va Meksika bilan diplomatik munosabatlarni 1972 yil 14 fevralda o'rnatgan. 1971 yil 5 oktyabrda Meksika prezidenti Echevarria o'zining BMT Bosh Assambleyasining 26-sessiyasida so'zlagan nutqida "Davlat suvereniteti va hududiy butunlik yuridik ajralmas tushunchalar" deb aytdi. Sessiyada XXRning BMTdagi huquqiy maqomini tiklashga qaror qilinganidan so'ng, Meksika tashqi ishlar vazirligi XXRning "yagona qonuniy vakili" deb tan olish to'g'risida kommyunike qabul qildi. 16 noyabrda Meksika hukumati Tayvan bilan diplomatik munosabatlarni uzishini e'lon qildi.

1972 yil 14 fevralda XXR va Meksika o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilishi to'g'risida birgalikda kommyunike e'lon qildilar. Shundan beri XXR va Meksika munosabatlari ravon rivojlanib kelmoqda. Xususan, so'nggi yillarda ikki davlat o'rtasida oliy darajada tashriflar va hamkorlik sohalari kengayib bormoqda. 1993 yilda XXR va Meksikada ikki davlat tashqi siyosiy idoralari o'rtasida maslahatlashish siyosiy mexanizmi o'z ishini boshladi.

XXR sining Braziliya bilan o'zaro hamkorligi uzoq davrlardan boshlangan bo'lib, Lotin Amerikasining ko'pgina davlatlari bugungi kunda, o'zlarining XXR ga bo'lgan munosabatlarini qayta ko'rib chiqa boshladilar. 1974 yil 15 mayda XXR va Braziliya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatiladi, 1984 yil may oyida Braziliya prezidenti Joao Batista Figeyredu XXRga tashrif buyuradi. Natijada, XXR rahbari Den Syao Pin Figeyreduning tashrifi munosabati bilan o'zining xalqaro diplomatik munosabatlar tizimidagi taniqli "Sharq va G'arb" hamda "Shimol va Janub" nazariyasini ilgari suradi.

Den Syao Pinning fikricha, dunyo hamjamiyati oldida turgan masalalar ichida ikkita eng muhim masala - bu Sharq va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshilikni barham toptirish orqali dunyoda tinchlikni mustahkamlash, shuningdek rivojlangan davlatlar (shimol) va rivojlanayotgan davlatlar (janub) o'rtasidagi tafovutni kamaytirish orqali insoniyat rivojlanishiga ko'maklashishdir. Deyarli o'n yildan keyin 1993 yilning noyabr oyida XXR raxbari Szyan Szyaminning Braziliyaga tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida strategik hamkorlik o'rnatilishi e'lon qilindi.

2009 yilda Braziliya va XXR o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining 35 yilligi nishonlanadi. Braziliya Prezidenti Luis Inasiu Lula da Silva 18 maydan 20 maygacha XXRga ikkinchi bor rasmiy tashrif buyuradi.

XX asrning 90-yillari boshida Lotin Amerikasi davlatlarida savdoning erkinlashuvi (liberallashuvi) mintaqada savdosini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismiga aylandi, ya'ni, Lotin Amerikasi bozori ochilganda ko'pgina korxonalar murakkab ahvolga tushdi, ular shu davrda mintaqadagi davlatlar bilan faol ish olib borishni boshlagan AQSh, Yevropa va Yaponiya bilan

raqobatga chidashga qodir emas edilar. Bu davrda XXRning Lotin Amerikasiga eksport hajmi uncha katta emas edi.

90-yillarda XXR va Lotin Amerikasi munosabatlarida yangi elementlar paydo bo'ldi. Lotin Amerikasida iqtisodiy rivojlanishning neoliberalistik strategiyasi dolzarb bo'lib qoldi. XXR bozor munosabatlarini kuchaytirish tomon harakat qila boshladi va uning sheriklari ushbu maqsadda iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asosiga o'zgartirishlar kiritdilar.

Mintaqa davlatlari va XXR o'rtasida investitsiyalarni o'zaro rag'batlantrish va himoyalash to'g'risida 11 ta bitim va 2 marta soliqqa tortilishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida 5 ta kelishuv tuzildi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiy va siyosiy tashkilotlar bilan aloqalar o'rnatilish natijasida, ikki tomonlama hamkorlik kuchaytirildi.

1990 yilda Rio Guruhi bilan dialog boshlandi, 1991 yilda XXRsi va Lotin Amerikasi Taraqqiyot Bankida kuzatuvchi maqomini o'ldilar, 1993 yilda esa, shu tashkilot safiga kirishga ariza berdilar. Shu yilda EKLA qoshida kuzatuvchi maqomini olgani, bir yildan keyin esa, Xitoy Lotin Amerikasi integratsiya assotsiatsiyasi huzurida ham shunday maqomga erishgan birinchi Osiyo davlati bo'ldi. Shundan keyin, MERKOSUR va AND millatlar hamjamiyati bilan rasmiy munosabatlar o'rnatildi hamda Amazoniya parlamentida kuzatuvchi maqomini oldi. 2004 yilda Lotin Amerikasi parlamenti va OAG ham XXRga shunday maqomni berdilar³⁹.

XXR va Lotin Amerikasi davlatlari rivojlanayotgan davlat hisoblanadilar. Shu sababdan, tomonlar turli sohalarida hamkorlikning zarurligini va amalga oshirish mumkinligini tushunadilar. XXR va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalar nafaqat, biron bir uchinchi davlatga qarshi yo'naltirilmagan, balki "janub-janub" mintaqasidagi hamkorlikka yordam beradi.

XXR iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va oshkoralik davrida Lotin Amerikasi davlatlari hamda rivojlangan davlatlarga o'z eksportini oshirib bordi.

³⁹ XXR va Lotin Amerika davlatlari o'rtasidagi savdoning jadal o'sishi. "BIKI" № 84, 2007 y.

Agar, Lotin Amerikasi davlatlari islohotlarni amalga oshirish va oshkoralik siyosatini yurgizsalar, tabiiyki, dunyoning barcha davlatlari, shu jumladan: XXR ham ushbu mintaqaga o'z eksporti hajmini oshiradilar.

XXR va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi munosabatlarning rivojlanishi tashqi iqtisodiy aloqalarning davomli diversifikatsiyasiga qulay sharoit yaratadi. Uzoq yillardan beri, Lotin Amerikasi davlatlari shunday diversifikatsiyaga intilib kelmoqdalar. Mazkur strategiyaning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri, bu-tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish bo'lib, Amerika bozoriga tobelikni kamaytirish, dunyoning barcha mintaqalarida yangi savdo sheriklarni izlashdir. Hozirda XXR va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi savdo hajmi tashqi savdo aylanmasining 6 %dan oshmasada, uning o'sish salohiyati kattadir.

Xitoyliklarning Lotin Amerikasiga bo'lgan bunday katta e'tibor qilishining sabablari yetarlicha bo'lib, quyida ulardan bir nechta keltirilgan:

- avvalavbor, XXRsi Lotin Amerikasi davlatlari uchun “katta sherik” (deyarli barcha yo‘nalishlarda);
- Lotin Amerika davlatlari - bu o'sib kelayotgan XXRsi iqtisodiyoti uchun xom-ashyo manbai (xom-ashyoni past narxlarda sotib olish imkoniyati);
- Lotin amerikasi davlatlari esa, XXR uchun o'ziga xos tovar va xizmatlar sotiladigan bozori (lotin amerikaliklarni “Made in China” belgisidagi tovarlar va ularning narxi qoniqtiradi).

Lotin Amerikasida AQSh qaramog'idan chiqishga intilish tobora kuchayib bormoqda. Lotin Amerikasi davlatlarining an'anaviy sheriklari AQSh va Yaponiya bilan bir qatorda, XXRsi ham yil sayin raqobatbardosh sheriklardan biriga aylanib bormoqda.

2010 yilda XXRning mintaqadagi davlatlar bilan savdo hajmi qariyb 112 mlrd. AQSh dollari miqdorida bo'lgan, savdoning uchdan ikki qismini yengil sanoat, maishiy texnika va mashinasozlik mahsulotlarini dumping narxlarda XXRdan qilingan import tashkil etgan. XXR esa ushbu mintaqadan faqat xom-

ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini import qilgan. Binobarin, Pekin o'z diqqatini ikkita barqaror rivojlanib kelayotgan davlat - Braziliya va Meksikaga qaratgan.

1999 yilda XXR va Lotin amerikasi davlatlar munosabatlarida yangi tendensiyalar paydo bo'ldi, bu mintaqada savdo va investisiyalar bo'yicha Amerikadan keyin ikkinchi o'rinda turgan Yaponiya XXRga nisbatan inqirozdan kattaroq zarar ko'rdi va barcha loyihalarini yopdi. 1999 yilda Lotin Amerikasi davlatlari rasmiy shaxslari XXRga tez-tez tashrif buyura boshladilar.

1999 yilda Pekinda XXR Bosh vaziri Xu Szin Tao va Braziliya Bosh vaziri Marko Marsel bilan muzokaralari bo'lib o'tdi, may oyida Pekinga Kolumbiya Prezidenti Andree Pastrana Arango keldi, iyul oyida XXRga Kolumbiya, Meksika va Chilining tashqi ishlar vazirlari tashrif buyurdilar, noyabrda XXR rahbari Szyan Szemin ATES davlatlari rahbarlarining norasmiy uchrashuvi doirasida Chili prezidenti Rikardo Lagos bilan uchrashdi.

Hozirgi kunda XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan munosabatlari mustahkamlanib bormoqda. Oldin alohida e'tibor Braziliya va Argentinaga berilgan bo'lsa (mintaqa bilan savdo aloqalarining yarmi shu davlatlarga to'g'ri kelgan), hozirda Meksika, Peru, Chili va Venesuela ularga tenglashib olganlar. Binobarin, har bir Lotin Amerikasi davlatida XXR davlatining manfaati turlicha. Meksika XXRni NAFTA a'zosi sifatida qiziqtirgan, chunki unga investisiya kiritish AQSh bilan boj to'lovlarisiz savdo qilish imkonini beradi. Ushbu davlatning iqtisodi deyarli butunlay AQShdagi vaziyatga bog'liq, shu sababdan XXR va Yaponiya bilan hamkorlik XXR uchun o'ziga xos langarcho'p vazifasini o'taydi. Bu 2000 yil oxirida yaqqol ko'zga tashlandi, unda Meksika hukumati uchun noxush bo'lgan ikkita omil birvarakayiga sodir bo'ldi: AQShda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi va janubda qo'zg'olonchilarning bosh ko'tarishi. O'z vaqtida Lotin Amkerikasida (1997 yilning yozida) Pekin neft narxlarining tushishidan muvaffaqiyatli foydalanib qolgan va Karakoles va Shimoliy Interkampodagi (Venesuela) neft konlarida neft qazib olish ishlari huquqini yigirma yil muddatga qo'lga kiritgan edi. 358 mln. AQSh dollarni tashkil etgan bitim hozirgacha XXRning Lotin Amerikadagi eng yirik

investision loyihasi bo'lib kelmoqda. Yanayam oldinroq, 1992 yilda Perudagi Talara neft konida neft qazib olish bo'yicha huddi shunday shartnoma tuzilgan edi. Bu ikki davlat dunyo bozorida xom ashyo narxining o'zgarib turishidan ko'p aziyat chekkanlar va shuning uchun XXR kabi ulgurji ko'tarafurush bilan uzoq muddatli hamkorlikdan manfaatdorlar.

XXR va Lotin Amerikasining iqtisodiy rejalari uzoqni ko'zlovchi strategik oqibatlariga ega. AQShga ma'lum darajada raqiblik qila oladigan davlatning yuzaga kelishi mintaqadan busiz ham mavjud bo'lgan amerikaga qarshi kayfiyatlarni kuchaytirib yubordi.

Amerikaga qarshi qarash muayan shaklga ega bo'la boshlaydi, Lotin Amerikasi davlatlari, avvalambor Braziliya, Kuba va Venesuela "Dunyoda adolatli tuzum o'rnatish" xalqaro harakatiga boshchilik qiladilar. XXR o'zini uchinchi dunyo manfaatlari himoyachisi qilib ko'rsatish ilinjida bu kayfiyatni har tomonlama qo'llab quvvatlaydi. Xususan 1999 yilda Pekin Kuba bilan Lotin Amerikasiga XXR radio eshittirishlarini ispan va portugal tillarida retranslyatsiya qilish to'g'risida kelishib olindi.

2.2. XXR va Lotin Amerikasi mamlakatlari savdo-iqtisodiy aloqalarining rivojlanish bosqichlari hamda hamkorlik xususiyatlari tahlili

So‘nggi davrda XXR va Lotin Amerika o‘rtasida o‘zaro investisiyalar hajmi ham ortib bormoqda, islohotlar uzluksiz davom etmoqda, bundan tashqari rivojlanayotgan davlatlar manfaatiga ehtibor qaratish zarur. Amerikaaro Taraqqiyot Banki (ATB) anjumanida Chjou Syaochuan XXRning ATBga qo‘shilishi XXR va Lotin amerikasi davlatlari aloqalarining yanada kengayishiga, do‘stona hamkorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi va XXR hamda Lotin Amerikasi iqtisodining o‘sishiga va jahon iqtisodiy inqiroziga qarshi turishga yordam beradi.

XXR ATBning yangi a‘zosi sifatida Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarning yanada mustahkamlanishiga, taraqqiyot va global inqirozga birgalikda qarshi turish masalalarida tajriba almashishga intiladi. XXR Markaziy banki rahbari moliyaviy inqirozning xalqaro savdo-sotiq va investisiya sohalariga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatishini inobatga olgan holda “Janub-Janub” hamkorligini faollashtirish dolzarb masala ekanini ta’kidlab o‘tdi. XXR o‘zining ATBda a‘zolidan Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni va investision hamkorlikni mustahkamlash maqsadida foydalanishini aytdi.

Chjou Syaochuan XXR va Lotin Amerikasi hamkorligi o‘zaro manfaatli ekanini va yanada rivojlanish uchun katta salohiyatga egaligini qayd etdi. XXRning ATBga a‘zo bo‘lishi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun yaxshi start bo‘ldi. XXR ATB va boshqa moliya institutlari bilan yaqindan hamkorlik qilgan holda jahon moliyaviy inqirozining salbiy ta’siridan himoyalaniish maqsadida ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishga tayyorligini aytdi. XXR Markaziy Banki rahbari XXRning ATB bilan hamkorligi XXRning Lotin Amerikasi davlatlari bilan yaqinlashishiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

1959 yilda tashkil topgan ATB eng yirik mintaqaviy kredit instituti hisoblanadi. U Lotin Amerikasi davlatlarida turli rivojlanish dasturlarini

moliyalashtirish maqsadida tashkil topgan. ATB boshqaruvi Vashingtonda joylashgan. 2009 yilning yanvar oyida XXR rasmiy tarzda ATB safiga qo'shilib, tashkilotning 48 - a'zosiga aylandi.

31 martda XXR Davlat Taraqqiyot Banki (XDTB) maslahatchisi Lyu Kegü va Amerikaaro taraqqiyot banki (ATB) prezidenti Luis Alberto Moreno muzokaralar olib bordilar va hamkorlik to'g'risidagi memorandumga imzo chekdilar.

Memorandumni imzolash marosimidan so'ng Lyu Kegü xujjatda XDTB va ATB o'rtasidagi hamkorlik maqsadlari har tomonlama belgilab berilganini ma'lum qildi. XXR va Lotin Amerikasi hamda Karib basseyini davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash maqsadida energetika, transport, shahar infrastrukturasini ob'ektlari qurilishi, xalq farovonligi va qishloq xo'jaligi sohasida Lotin Amerikasidagi moliyaviy mablag'lar ATBda akkumulyatsiya bo'lishida XDTB faol ishtirok etadi.

Janob Lyu Kegü XDTB mablag'larni birgalikda akkumulyatsiya qilish maqsadida tanlab olishi uchun ATB tomonidan infrastruktura ob'ektlari qurilishi va xalq farovonligini oshirish bo'yicha jami qiymati 30 mlrd. AQSh dollar bo'lgan o'nlab loyihalar ro'yxati taqdim etilganini bildirdi. Tomonlar moliyaviy hamkorlikning yangi shakllarini, xususan davlatlar uchun investision jamg'armalar tashkil etish imkoniyatlarini o'rganishlari kerak bo'ladi. XXR va Lotin Amerikasi davlatlari iqtisodiy va moliyaviy jihatdan bir birlarini to'ldirish imkoniga egaliklari tufayli ikki tomonlama hamkorliklari ulkandir.

XDTB 2005-yilda Lotin Amerikasi bilan moliyaviy hamkorlikni boshladi. Hozirgi kunda bank Venesuela, Braziliya, Chili, Peru, Argentina, Meksika va Kosta-Rika bilan hamkorlik qilmoqda.

"Sharqiy Osiyo-Lotin Amerikasi" forumi - bu Sharqiy Osiyo-Lotin Amerikasi hamkorligiga bag'ishlangan forum rasman 2001 yil mart oyida joriy etilgan bo'lib, uning asosiy a'zolari - XXR, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Singapur, Avstraliya, Braziliya, Argentina, Meksika va Venesuela. 2006 yil 23 avgustda Braziliya poytaxti Braziliada Sharqiy Osiyo-Lotin Amerikasi

hamkorlik Forumi doirasida tashqi ishlar vazirlari darajasida uchinchi yig'ilish o'z ishini tugatdi. Uchrashuv ishtirokchilari "Braziliya deklaratsiyasini" qabul qildilar va ikkala mintaqa savdo va investisiya sohasida hamkorlikni yanada mustahkamlashlarini bayon qildilar. "Braziliya deklaratsiyasidan" jahon iqtisodidagi mavjud vaziyat yuzasidan xavotir bildirilgan, shuningdek davlatlar rahbarlari siyosat, iqtisod va savdo sohalarida ikki tomonlama o'zaro aloqalarni faollashtirish istagini bildirdilar. Yig'ilish tugaganidan so'ng qabul qilingan "Braziliya deklaratsiyasi" ikki mintaqa o'rtasidagi hamkorlik va aloqalarni faollashtirish uchun yo'naltiruvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Sharqiy Osiyo-Lotin Amerikasi hamkorlik Forumi ushbu mintaqalardagi ko'p tomonlama hamkorlik bo'yicha yagona rasmiy forumdir. Tashkil etilgandan beri o'tgan o'n yildan ortiq davr ichida mintaqalar o'rtasidagi o'zaro tushunishni mustahkamlash va munosabatlarni chuqurlashtirishda muhim o'rin tutdi. XXR tomonidan Forum ishiga doimo katta e'tibor bergan va uning doirasidagi ko'pgina tadbirlar tashabbuskori bo'lgan⁴⁰.

21-22 oktyabrda Sichuan provinsiyasining ma'muriy markazi bo'lgan Chendu (Janubi-G'arbiy XXR) shahrida XXR va Lotin Amerikasi tadbirkorlarining 4-sammiti bo'lib o'tdi. Anjumanda XXR va Lotin Amerikasi siyosiy va ishbilarmon doiralari, aqliy markazlari, savdo birlashmalari va jamiyatlarining tahminan 1000 vakili ishtirok etdi. Anjuman shiori - "Hamkorlik kuchimizni oshiradi, uyg'unlik o'sishdan dalolat beradi". Anjuman doirasida ATBning namoyish-targ'ibot ishlari, Sharqiy Osiyo-Lotin Amerikasi hamkorlik Forumi o'rta va kichik korxonalari o'rtasida hamkorlik, Lotin Amerikasi davlatlari madaniyati va tovarlari ko'rgazmasi, XXR va Lotin Amerikasining xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam berishga mas'ul idoralari vakillari ishtirokidagi yig'ilishlar bo'lib etdi⁴¹. Forumning asosiy mavzusi sifatida barqaror rivojlanish, xizmatlar savdosi sohasi, energetika, mineral resurslar, pul

⁴⁰ «Jenmin jibao» gazetasi № 2. 24.08.2007 y.

⁴¹ Sinhua agentligi uncbiz.com 21.09.2010 y.

mablag'larini akkumulyatsiya qilish, kapital bozorini rivojlantirish va boshqalar muhokama qilinadi.

Xu Szintao o'z ma'ruzalarida XXR strategik perspektivalardan kelib chiqqan holda Lotin Amerikasi bilan do'stona aloqalarning mustahkamlanishiga katta e'tibor qaratishini bir necha bor ta'kidlagan. 2004 yilda Lotin Amerikasiga qilgan tashrifi davrida "XXR har qanday sharoitda Lotin Amerikasiga do'st va o'zaro manfaatli hamkor bo'lib qoladi va ikkala tomon turli madaniyatlar o'rtasida faol munosabat namunasi bo'lib xizmat qiladi. So'nggi 4 yil ichida XXR va Lotin Amerikasi oliy darajadagi aloqalarni mustahkamlamoqdalar, XXR va Lotin Amerikasi davlatlari tashkilotlari o'rtasida maslahat va dialog mexanizmini muntazam yo'lga qo'yanlar, ikkala davlat bir birlarining tub manfaatlarini tashkil etuvchi masalalar yuzasidan bir birlarini qo'llab quvvatlaydilar. XXR va Lotin Amerikasi haqiqiy do'st va hamkor bo'lganlar"⁴² dedi. So'ngg yillarda XXR va Lotin Amerikasi o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar jadal rivojlanmoqda, hamkorlik saviyasi va sifati sezilarli oshdi, ikki tomon o'rtasidagi gumanitar aloqalar tobora kengayib bormoqda, XXR va Lotin Amerikasi xalqlari o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik chuqurlashib bormoqda.

Ikkala tomon ham taraqqiyotning keng perspektivalariga ega. XXR Lotin Amerikasi va Karib ko'rfazi davlatlari bilan birgalikda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik asosida har taraflama birgalikda rivojlanishga qaratilgan hamkorlikni rivojlantirishga tayyor. Shu munosabat bilan XXR kelajakda ham nafaqat alohida davlatning rivojlanishi, balki umumiy taraqqiyot yo'lida Lotin Amerikasi davlatlari bilan turli sohalarda hamkorlikni davom ettirishga tayyor.

Hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun ba'zi davlatlar tenglik va o'zaro manfaatdorlik prinsipiga rioya qilishlari zarur. XXR tinch rivojlanish yo'li tarafdori hamda o'zaro manfaatdorlik va ikki tomonlama yutuqga yo'naltirilgan oydinlik strategiyasiga amal qiladi. XXR o'zi va Lotin Amerikasining umumiy manfaatlarini himoya qilish va rivojlantirishni hamkorlikning dastlabki va oxirgi punkti deb hisoblaydi, Lotin Amerikasi

⁴²www.russian.people.com.cn/31520/6537928.html

xalqlarining rivojlanish yo'lini mustaqil tanlash huquqini hurmat qiladi. Sheriklik munosabatlarini o'rnatish uchun uzluksiz innovatsiya va har taraflama hamkorlik zarur. Buning uchun siyosiy munosabatlarni yanada jadallashtirish, oliy darajadagi aloqalarni uzmaslik, siyosiy o'zaro ishonchni kuchaytirish maqsadida ikki taraflama va ko'p taraflama maslahatlar va dialoglar mexanizmini takomillashtirish kerak.

Taraflar savdo-iqtisodiy o'zaro manfaatli munosabatlarni chuqurlashtirishga, savdo tuzilmasini optimizatsiyalashga, o'zaro investisiyalar hajmini oshirishga, foydali qazilmalar qazib olish sanoati, infrastruktura qurilishi, tog'-kon sanoati, energetika, qishloq xo'jaligi va yuqori texnologiyalar sohasida o'zaro investisiyalarni ko'paytirishga intilmoqdalar.

Taraflar iqlim o'zgarishlari, oziq-ovqat havfsizligi, energetika va moliya, ko'p taraflama savdo tizimi va BMTning ming yillikni rivojlantirish maqsadlari borasida o'z pozitsiyalarini faollashtirishi va kelishtirishi, xalqaro iqtisodiy tartibni oqilona rivojlantirish maqsadida xalqaro iqtisodiy, moliyaviy va savdo qoidalarini ishlab chiqishda birgalikda ishtirok etishlari zarur.

Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra 2000-2010 yillarda Lotin Amerikasiga XXR eksporti ortishining asosiy manbai Braziliya va Meksikaga uyali aloqa mobil telefonlari uchun ehtiyot qismlar yetkazib berish bo'lgan, bu Lotin Amerikasiga XXR eksporti hajmi absolyut ortishining jami 3 foizini tashkil etgan. Yana bir muhim omillardan biri Meksika va Braziliyaga EHM uchun ehtiyot qismlar yetkazib berish edi (2000-2010 yillarda Lotin Amerikasiga XXR importi hajmi o'sishining jami 6 %).

Umuman olganda XXRning uyali telefonlar, EHM ehtiyot qismlari, DVD-proigrivatellari eksporti Lotin Amerikasiga XXR eksport ekspansiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan. XXRdan uyali telefonlarning ehtiyot qismlari, kompyuter qismlari, DVD-proigrivatellarini Meksika va Braziliyaga eksport qilish (dunyo bo'yicha ushbu mahsulotlarni XXRdan eksport qilishga nisbatan olinganda) XXRning Braziliya va Meksika eksportidagi ulushi 2000-2010 yillarda XXRdan butun dunyo eksportiga nisbatan ko'p (Jadval 2.2.1.).

Jadval 2.2.1.

**Lotin Amerikasi davlatlaridan XXRga eksport qilinadagan
mahsulotlar 2010 y (%da)⁴³**

Davlatlar	Mahsulot	%	Mahsulot	%	Mahsulot	%	Mahsulot	%
Argentina	Soya	55	Soya yogʻi	24	Xom neft	10	Boshqalar	11
Braziliya	Temir ruda	27	Soya	23	Xom neft	6	Boshqalar	44
Venesuela	Xom neft	51	Temir ruda	9	Chugun	2	Boshqalar	38
Kolumbiya	Xom neft	50	Ferrosplav	40	Lom va rangli metallar	5	Boshqalar	5
Kuba	Nikel shiteynlar	71	Shakar	20	Minerallar	7	Boshqalar	2
Paragvay	Paxta	31	Yogʻoch	26	Charim	24	Boshqalar	19
Peru	Mis ruda	39	Goʻsht mahsulotlari	16	Xom neft	10	Boshqalar	35
Urugvay	Soya	46	Kimyoviy yogʻoch sellyuloza	13	Jun	9	Boshqalar	32
Chili	Mis	50	Mis ruda	31	Kimyoviy yogʻoch sellyulozasi	6	Boshqalar	13
Ekvador	Xom neft	94	Lom va rangli metallar	3	Yogʻoch	1	Boshqalar	2

Lotin Amerikasiga XXRsining tovarlarini yetkazib berishdagi asosiy tendensiyalar ommaviy axborot vositalarida alohida firmalar miqyosida yuz berayotgan jarayonlarga bagʻishlangan maqolalarda aks ettirilgan. Xususan, XXRning “Huawei” va “ZTE” kabi birlashmalari Braziliya va Meksika kompaniyalariga (“Tele Norte Leste Participacoes”, “Telmex”) joyida ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish uchun, arzon asbob-uskunalar sotganliklari toʻgʻrisidagi statistika mavjud boʻlib, unda “ZTE” Meksika kompaniyalari orqali AQSh va Kanadaga reeksportni tashkil etishni masalalari koʻndalang qoʻyilgandir.⁴⁴

⁴³www.eclac.org/

⁴⁴XXR va Lotin Amerika davlatlari oʻrtasidagi savdoning jadal oʻsishi “BIKI” № 106, 2008 y.

XXR va Lotin Amerikasi o'rtasida iqtisodiy integratsiyaning chuqurlashishi, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari sifatida, XXR va Lotin Amerikasi uchun ularga teng sharoit yaratilmayapti.

Shunday qilib, Xitoy ehtiyot qismlar eksportini orttirib, o'z ta'minotini diversifikatsiya qilmoqda (oldin u asosan tayyor mahsulotdan iborat bo'lgan), shu tariqa mahalliy bozorga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Iste'mol tovarlari sektorida savdo-sotiqning o'sishi XXR firmalariga o'z eksport bozorini Lotin Amerikasi hisobiga kengaytirishga yordam beradi. XXR importyorlari qazib chiqarish sanoati va infrastrukturaga kiritilgan investitsiyalar evaziga Lotin Amerikasidan xom ashyo (tarkibida temir va mis bo'lgan) sotib olib vertikal birlashtirilgan ta'minot kanallarini mustahkamlamoqdalar.

Lotin Amerikasi eksportyorlari esa, XXRda xom-ashyo mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni shakllantirmoqdalar, bu o'z o'rnida, Lotin Amerikasi ta'minotchilarining savdo xajmini oshishiga, demak mintaqada iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashishiga hamda yangi ish o'rinlarini yaratilishiga olib keladi. Shunday qilib, Meksika va Braziliya eksportyorlari aloqa vositalari va EHM ishlab chiqarish uchun arzon XXR ehtiyot qismlarini sotib olishdan ma'lum darajada foyda oladilar.

Lotin Amerikasi importyorlari va XXR iste'mol tovarlari bilan chakana savdo qiluvchi tadbirkorlar savdo hajmini sezilarli oshirdilar, biroq, ba'zi davlatlar (masalan, Meksika) XXRning savdo-ishlab chiqarish ekspansiyasi natijasida ishchi o'rinlarining bir qismini va, xatto, ba'zi korxonalarni yo'qotdilar. Mintaqadagi qator firmalar esa yangi ta'minot kanallaridan foydalanishdan, iste'mol tovarlarining ma'lum turlari dunyo bozorida XXRning roli ortishidan albatta yutdilar.

Umumiy jihatdan XXR va Lotin Amerikasi o'rtasidagi iqtisodiy integratsiya yaqin va o'rta muddatli kelajakda kuchayadi. Ikki tomon uchun tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi uchun xatar darajasi turlicha bo'ladi. XXR mintaqadagi iqtisodiy inqirozdan yoki XXR mahsulotlarini sotishni

qiyinlashtiruvchi proteksionizm siyosatidan zarar ko'rish mumkin, biroq bunday inqiroz XXR iqtisodiga minimal ta'sir ko'rsatadi.

XXR bir necha yil oldingi ba'zi xom-ashyo turlari narxi pasayishidan deyarli zarar ko'rmadi. Qator hollarda qora va rangli metall narxi oshgan bo'lsada qurilishda yuz bergan o'sish, ushbu metallarga bo'lgan talabni yuqori darajaga ko'tardi.

Bundan tashqari, XXR ta'minot manbalari yaqin o'tmishga nisbatan ancha kamaygan bo'lsada, nisbatan diversifikatsiyalanganligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina importyorlar yirik davlat firmalari timsolida namoyon etgan, moliyalashtiradi va katta hajmda mahsulot sotib oladilar, bu esa ularning narxlar darajasi to'g'risidagi va boshqa mavzudagi muzokaralarda muvaffaqiyatli ishtirok etishlariga yo'l ochib beradi. Lotin Amerikasidan mahsulot yetkazib berish uzilib qolsa, bu kompaniyalarning boshqa ta'minot manbalariga o'tish bo'yicha ko'proq imkoniyatga egalar.

XXRning xom-ashyo zahiralarini yaratish, milliy kompaniyalarning import strategiyasini boshqarish, narxlarni pasaytirishga amalda ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga egaligi Lotin Amerikasi importyorlarining zaifligini oshiradi.

XXRning port, yo'l va boshqa infrastrukturaga kiritgan investisiyalari kamayishi mumkin, chunki bunday loyihalarning aksariyati birinchi navbatda uzluksiz xom-ashyo yetkazib berishni yo'lga qo'yishdan iborat. XXR importi bir nechta xom-ashyo tovarlariga qaratilganligi inobatga olinsa, XXRda industrializatsiya sur'ati va qurilish sohasi rivojlaning har qanday pasayishi Lotin Amerikasidan XXRga eksport hajmi qisqarishiga olib kelishi mumkin⁴⁵.

Lotin Amerikasi importyorlari esa aksincha tovar ayirboshlash olib boriladigan kanallar qayta qurilishi oqibatida zaif vaziyatga tushib qolishlari mumkin. Yirik kompaniyalar ish haqida mablag' tejash maqsadida istalgan vaqtda ishlab chiqarishni ko'chirishga qaror qilishlari mumkin. XXRning g'arbiy yarim shar bozorini o'zlashtirishdan manfaatdorligi inobatga olinsa, XXRdan tovar yetkazib berish uzilishi ehtimoli juda kam.

⁴⁵XXR va Lotin Amerika davlatlari o'rtasidagi savdoning jadal o'sishi "BIKI" № 76, 2009 y.

Shuningdek, Lotin Amerikasi mamlakatlari eksportidagi AQSh va XXRsining ulushlarini bilmoqchi bo'lsak, unda quyidagi jadval 2.2.2. ga murojaat qilamiz.

Jadval 2.2.2.

Lotin Amerikasi davlatlari eksportidagi AQSh va XXRning ulushi, % da⁴⁶

Mamlakatlar	AQShga eksport		XXRga eksport	
	2000 y.	2010 y.	2000 y.	2010 y.
Argentina	12,0	6,2	3,0	6,6
Braziliya	24,3	10,2	2,0	13,2
Venesuela	59,6	48,8	0,1	2,9
Kolumbiya	50,4	39,7	0,2	2,9
Kosta-Rika	52,0	35,8	0,2	8,8
Kuba	-	-	4,8	26,4
Meksika	88,2	87,6	0,2	0,6
Peru	28,0	16,3	6,4	15,4
Chili	16,5	11,3	5,0	23,2

Yoqoridagi jadval 2.2.2. dan ko'rinib turibdiki, 2010 yildagi Lotin Amerikasi mamlakatlari orasidan AQSh ga qilingan eksport hajmining eng kattasi Venesuela (48,8 %), Kolumbiya (39,7 %), Kosta-Rika (35,8 %) va Meksika (87,6 %) mamlakatlariga, uning Xitoyga bo'lgan eksportida esa, Braziliya (13,2 %), Kuba (26,4 %) va Chili (23,2 %) mamlakatlariga to'g'ri kelmoqda.

So'nggi yillarda XXR va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanish uchun yangi stimulga ega bo'ldilar, XXR va Lotin Amerikasi davlatlari o'rtasidagi tovar almashuvchi yiliga 40 %dan ortib bordi. Bugungi kunda XXR Lotin Amerikasining Osiyodagi asosiy savdo sherigi bo'lib qolmoqda. Inqirozga qaramay, 2008 yilda XXR va Lotin Amerikasi o'rtasidagi ikki tomonlama savdo hajmi 2007 yildagi ko'rsatkichdan 40 %ga

⁴⁶www.eclac.org/

ortib, 143 mlrd. AQSh dollari tashkil etgan holda rekord ko'rsatkichga ko'ratildi.

XXR Tijorat vazirligi 11 noyabrda ma'lum qilganidek, XXR va Lotin Amerikasi mintaqasi o'rtasidagi tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davri ko'rsatkichlariga nisbatan 52 %ga ortib, 2010 yilning noyabr-sentabr oylarida 113 mlrd. 552 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa XXR tashqi savdosi hajmi o'sishi sur'atlaridan sezilarli darajada yuqori.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, XXRning Lotin Amerikasiga eksporti hajmi o'tgan yilning yanvar-sentabr oylarida 54 mlrd. 477 mln. AQSh dollari tashkil etdi, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 48.9 %ni tashkil etdi, XXRga import hajmi 56 mlrd. 984 mln. AQSh dollar (o'sish 55.2 %).

Hozirgi davrda Braziliya, Meksika va Chili XXRning Lotin Amerikasidagi uchta yirik hamkori bo'lib, ularning iqtisodiy darajada 2000 yilda ikki tomonlama savdo aylanmasi 12 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich deyarli 112 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Buni biz quyidagi jadval 2.2.3.dan yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Jadval 2.2.3.

XXR ayrim Lotin Amerikasi davlatlari bilan tovar aylanmasi dinamikasi (mln. AQSh dollar)⁴⁷

Davlatlar	2000 y.			2010 y.		
	Eksport	Import	Tovar aylanmasi	Eksport	Import	Tovar aylanmasi
L.Amerika davlatlari	3.4	7.9	11.3	56.9	54.4	111.5
Meksika	0.15	0.9	0.2	28.7	2.03	30.8
Braziliya	2.03	3.8	5.8	13.5	10.8	24.4
Argentina	0.3	2.4	2.7	11.5	7.9	19.5
Chili	0.6	0.3	0.9	1.1	9.01	10.1
Peru	0.19	0.5	0.7	2.8	4.4	7.3
Kolumbiya	0.02	0.02	0.04	3.5	0.3	3.8

⁴⁷ www.eclac.org/

Venesuela	0.02	0.4	0.42	1.8	0.3	2.2
-----------	------	-----	------	-----	-----	-----

XXR va Lotin Amerikasi o'rtasidagi tovar aylanmasi o'sishi bilan birgalikda, tovar almashinuvchida diversifikatsiya kuzatilmoqda. An'anaviy to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari bilan bir qatorda Lotin Amerikasiga yuqori qo'shimcha qiymatga ega yuqori texnologik mahsulotlar, jumladan kompyuterlar va aloqa texnologiyalari, konteynerlarni tekshirish uchun asbob-uskunalar eksporti ham ortmoqda. Integral sxema va mikroelektron tarkibiy qismlar Lotin Amerikasidan import qilinadigan asosiy tovarlardan biriga aylandi. Bundan tashqari, Braziliyaning mintaqaviy samolyotlari, Meksika pivosi va Chili vinosi allaqachon XXR bozoriga kirgan.

XXR va Lotin Amerikasi katta istiqbolga ega hududdir. Umumiy taqdir, umumiy mas'uliyat va umumiy maqsad ularni jipslashtirmoqda. XXR va Lotin Amerikasi birgalikda kelajakka intiladilar, rivojlanish imkoniyatlaridan foydalanadilar, o'zaro manfaatli va har taraflama hamkorlikni kengaytiradilar, birgalikda o'zaro munosabatlarning porloq kelajagini yaratadilar va tinchlik va insoniyat taraqqiyoti oliy maqsadlariga birgalikda xizmat qiladilar. Lotin Amerikasida akkreditatsiya qilingan XXR elchixonalari va vakolatxonalari XXR va Lotin Amerikasi munosabatlarini har taraflama, uyg'un va og'ishmay rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarini davom ettirmoqdalar.

3-BOB. XXR VA LOTIN AMERIKASI MAMLAKATLARI O'RTASIDAGI SAVDO-IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISH STRATEGIALARI

3.1. XXR va Meksika o'zaro savdo aloqalarining rivojlanish tendensiyalari

XXR va Meksika xalqaro munosabatlarda juda ko'p umumiy dunyo qarashlarga egalar va ko'p tomonlama institutlar doirasida sermahsul hamkorlik olib bormoqdalar. BMTning inson huquqlari bo'yicha Komissiyasi sessiyasida Meksika XXRning pozitsiyasini qo'llaydi. 2001 yil sentyabr oyida XXR va Meksika XXRni Jahon Savdo Tashkilotiga kirishi to'g'risida ikki tomonlama kelishuvni imzoladilar. 2003 yil may oyida bo'lib o'tgan Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining 56-sessiyasida Meksika vakili Tayvan bilan bog'liq masalalarda XXRning pozitsiyasini qo'llab so'zga chiqdi.

Meksika XXRning Lotin Amerikadagi hajm jihatdan ikkinchi savdo hamkoridir. Agar Yevropa Ittifoqi davlatlari Meksikaning ananaviy savdo hamkorlari hisoblansa, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan savdo aloqalari nisbatan yaqinda o'rnatildi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlariga Meksika eksporti 2010 yilda 4 mlrd. AQSh dollarni tashkil etdi, Sharqiy Osiyoning yirik davlatlari XXR, Yaponiya va Janubiy Koreyaga 3 mlrd. AQSh dollarni to'g'ri keladi. Shunga qaramasdan Meksika eksporti 2005-2010 yillarida 2 % dan 1.9 %ga o'sishni ko'rishimiz mumkin. Import esa aksincha, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan import shu davr oralig'ida 19.7 mlrd. AQSh dollardan 52.3 mlrd. AQSh dollarga, 11.3 % dan 23.7 %ga , Xitoyning xissasi 8.2 % dan 16.8 % o'sdi⁴⁸.

Meksika iqtisodiyoti uchta etakchi sohalarga asoslangan bo'lib, ular: neft, turizm va chet ellarda istiqomat qilayotgan Meksika fuqorolarining pul o'tqazmalari hisoblanadi. Mazkur mamlakat Lotin Amerikasi qit'asidagi 2-o'rindagi yirik iqtisodiyotli davlat bo'lib, u neftni qazib olish va uni eksport qiluvchi yirik mamlakat hamdir. Garchi, oxirgi yillarda uning ishlab chiqarish sur'ati bir oz sekinlashgan bo'lsada, mamlakat daromadining 1/3 qismi aynan

⁴⁸ www.eclac.org/

sanoatdan kelib tushadi. Meksika o'ziga kerakli xom ashyoning katta qismini AQShdan sotib oladi. Uning iqtisodiyoti, AQShga chiqib ketgan migrantlarning pul o'tqazmalariga ancha bo'g'lanib qolgan bo'lib, u 2008 yilda AQShdagi inqiroz va iqtisodiyotni pasayishi natijasida ancha qiynalib qoldi.

Oxirgi yillarda mamlakatdagi amalga oshirilayotgan to'g'ri soliq va moliyaviy siyosat tufayli, unda makroiqtisodiy barqarorlik kuzatildi. Meksika Lotin Amerikasidagi chet el investitsiyasini o'ziga jalb qilishda qulay ishbiarmonlik iqlimini yaratgan eng jozibador mamlakatga aylandi. U xorijiy kapital qo'yilmalari hajmi bo'yicha rivojlanayotgan mamlakatlar orasida 4-o'rinda va Lotin Amerikasida 2-o'rinni egallamoqda.

Mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik natijasida, Meksikada 30.000 dan ortiq chet el korxonalasri faoliyat ko'rsatmoqdalar. Oxirgi 10 yillarda mazkur yonalishlarni davlat yuridik tomonidan mustahkamlash bo'yicha siyosatini amalda oshirmoqda. Mana shu ishlar natijasida Meksikani YaIMning o'sish sur'ati 2012 yilda 3,3 % ni tashkil etdi, uning inflyatsiya darajasi Meksika banki mo'ljallaganidek, 3,7 % ni tashkil etib, bu ko'rsatkich boshqa Lotin Amerikasi davlatlari orasida eng past ko'rsatgich bo'ldi⁴⁹.

AQShning bozori Meksika uchun katta ahamiyat kasb etadi. Meksika erkin savdo bo'yicha Shimoliy Amerika bilan (NAFTA) 20 yildan ko'proq vaqt oldin bitim tuzganidan so'ng, mamlakatning qayta ishlash sanoati rivojlanib borib, mazkur sohaning mamlakat YaIMdagi ulushi bitim tuzilgandan keyingi 5 yil ichida 4 %dan 1994 yilga kelib 7 %ga va 2001 yilda 13 %ga o'sdi. Ammo, Meksikaning bu holati, Xitoyning 2001 yilda JST ga a'zo bo'lgandan keyin keskin o'zgardi. Uning sababi esa, Xitoy JST ga a'zo bo'lishi bilan, uning tovarlari eksportiga qo'yilgan ko'pgina to'siqlarning kamayib borishi bilan bo'g'liqdir.

Xitoyning kam harajatli ishlab chiqarish bazasining mavjudligi va undagi ishlab chiqarish quvvatlarining kattaligi, uni Meksika bilan raqobatlashishga undab, uning natijasida Meksikaning AQSh bozoridagi ulushini ahamiyatli

⁴⁹ www.eclac.org/

qisqarishiga olib keldi. 2001 yildan 2005 yillargacha bo'lgan davrda XXRning AQSh uchun sanoat mahsulotlari eksporti, yiliga o'rtacha – 24 %ga o'sdi. Meksikaning AQShga eksporti esa, sekinlashib, u 20 %dan yiliga 3 %ga qisqarib bordi. Oxir iqibatda, Meksika XXRning AQSh importidagi sanoat mahsulotlari ulushi 2005 yilga nisbatan 2 barobarga o'sdi.

XXR AQSh bozoridan Meksikani siqib chiqarish sabablaridan biri – bu Xitoyni qayta ishlash sanoatining ixtisoslashgan bir necha mehnat talab sohalarida, ya'ni, tikuv, ofis jihozlarini, mebellarni ishlab chiqish, foto va optik uskunalarni ishlab chiqarish sohalarida, Meksikadan ustunligi bo'ldi. Shu bilan birga, arzon ishchi kuchini izlab, ko'pgina mana shu tovarlarni ishlab chiqaruvchilar, AQShga eksport qilish uchun tayyor mahsulotlarni yig'ish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, o'z faoliyatlarini Meksikadan Xitoyga ko'chirdilar.

Bunday muammolarga duch kelgan Meksika tez orada o'zining qo'ldan bo'y berayotgan sohalarini tiklashga xarakat qilib, oxirgi 7 yil ichida Meksikaning sanoat tovarlari eksporti AQSh import bozorining 11 %dan 14,4 %gacha rekord darajasiga ko'tarildi. 2005 yildan 2010 yilgacha XXR va Meksika AQSh import bozoridagi o'z ulushlarini ko'paytirdilar.


Albatta, mamlakatlar orasidagi raqobatga ularning geogafik joylashuvi ham bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bu jihatdan, Meksika AQShga yaqin joqlashganligi uchun yutuqli pozitsiyadadir. 2000 yillarda neftga bo'lgan narx 1 barrel uchun 25 AQSh dollardan 2013 yilga kelib, 100 AQSh dollardan oshib ketdi va yuklarni suv orqali tashish narxini sezilarli tarzda oshishiga olib keldi. Meksikaning AQSh bilan geografik yaqinligi uni Xitoy bilan bo'lgan raqobatdagi ustunligini ta'minlaydi.

Masalan, 2009 yilda Meksika ingichka ekranli televizorlarni eksport qilishda Janubiy Koreya va Xitoyni ortda qoldirib, jahonning etakchi eksporteriga va shuningdek, u yana ikki eshikli muzlatgichlarni ishlab chiqarishda ham etakchi mamlakatga aylandi.

Endi XXR Meksika tovar aylanmasiga kelsak, XXR Lotin Amerikasida Meksikaning (Kanada va Germaniya bilan bir qatorda) 2-o‘rinlarni egallab kelayotgan hamkori hisoblanadi. Meksika XXRning Lotin Amerikasidagi eng yirik eksport bozoriga aylandi. Oxirgi yillarda Meksikaning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan savdo aloqalari manfiy saldoni ko‘rsatmoqda, 17.6 mlrd. AQSh dollardan 48.3 mlrd. AQSh dollargacha o‘sidi. Meksika va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan savdo aloqalarining o‘shida XXRning hissasi juda katta. Meksika va XXR o‘rtasidagi tovar aylanmasi 2005-2010 yillarda 18.8 mlrd. AQSh dollardan 35 mlrd. AQSh dollarga o‘sdi. Buni biz 3.1.1- diagramma - jadvaldan yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

3.1.1-diagramma-jadval

XXR va Meksika davlatlari tovar aylanmasi dinamikasi (mln. AQSh dollari)⁵⁰



Diagrammadan shuni ko‘rishimiz mumkin, 1990 yilda XXRning Meksikaga eksporti 15.8 mln. AQSh dollarni, 2000 yilda 2.8 mlrd. AQSh dollarni, 2009 yilda esa 32.6 mlrd. AQSh dollarni tashkil qilgan. Importi esa 1990 yilda 9,0 mln. AQSh dollar, 2000 yilda 203,6 mln. AQSh dollarni, 2009 yilda esa 2,4 mlrd. AQSh dollarni, tovar aylanmasi 1990 yilda 24,8 mln. AQSh

⁵⁰ www.eclac.org/

dollar, 2000 yilda 3,08 mlrd. AQSh dollari, 2009 yilda esa 35 mlrd. AQSh dollari tashkil etdi. Eksport va import o'rtasida yuqorida misol keltirayotgan yillarda ijobiy saldog'a erishilgan.

90-yillar oxirida Meksikaga arzon xitoy tovarlarining kirib kelishi, asosan yengil sanoati mahsulotlari, Meksikaning milliy ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi va ko'pgina korxonalar yopildi. Buning natijasida Meksika tekstili 150 ming, o'yinchoq ishlab chiqarish esa 15 ming ishchi o'rinlarni yo'qotdi.

AQSh bozoriga Meksikaning qaytib kelishi - bu Meksikaning raqobatbardoshligining kuchayib borishi bilan tavsiflanadi. Sababi, XXR eksportining qimmatlashib borishi hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarning eng muhimlaridan - bu har ikkala mamlakatdagi ishchi kuchi qiymati orasidagi farq, Meksikadagi mehnat unumdorligining ortishi va okean orqasidagi mamlakatlar uchun yuk tashish qiymatining o'sishi bo'ldi.

Shuningdek, Meksikadagi mulkdorlar huquqining himoyalaniishi va uning erkin savdo siyosati mamlakatga chet el investitsiyalarini hamda ishlab chiqaruvchilarni jalb qilishda muhim rolni o'ynadi.

Agarda, XXRning qayta ishlash sanoatidagi ish haqi yuanda yiliga 14 %dan, dollarda esa 20 %dan oshib borgan holatda, bu nominal ish haqining oshishida va xitoy valyutasining revalvatsiyasida o'z aksini topdi. Shu holatda, Meksikaning qayta ishlash sanoatidagi o'rtacha dollardagi ish haqi peso kursining pasayib borishi va undagi ish haqining sekin-asta oshib borishiga suyanan holda, doimiy ravishda bir holatda qolaverdi. Masalan, 2003 yilda Meksikaning dollardagi o'rtacha ish haqi uning Xitoydagi darajasidan 6 marotaba ko'p bo'lgan. 2011 yilga kelib esa, u atigi 40 %ga ortgan. Yuqoridagi bu holatlar XXRning raqobatbardoshlik ustunligini pasaytirib bordi.

Ulardan tashqari, 2010-2012 yillar mobaynida Meksika o'zining bozordagi ulushini mehnat talab sohalarda, xususan, santexnika va mebel, yoritgichlar va issiqlik beruvchi uskunalarni ishlab chiqarishda, XXR orqali ko'paytirdi.

Shular qatorida Meksikaning yirik investitsiyalarga tayangan qayta ishlash sanoatidagi mehnat unumdorligining ahamiyatli tarzda oshishi uning mazkur

sanoatdagi raqobatbardoshligini oshirdi va 1ta mahsulot ishlab chiqarishga to'lanadigan ish haqini harajatlarini kamaytirishga yordam berdi.

Meksika xukumati xitoy tovarlariga antidemping choralarini qo'llay boshladi. 1300 mahsulotlarga 800-1000 %, ayrim mahsulotlarga esa masalan oyoq kiyim, o'yinchoq, tekstil mahsulotlariga 1600 % gacha soliqlar o'rnatildi. XXR javoban Meksikaning 136 ta mahsulotini asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xitoy bozorlariga kirishini man qilib qo'ydi. Shunga qaramasdan, Meksika XXRdan metal mahsulotlarini, mashinalar va uskunalar, kiyim-kechak, oyoq kiyim, teri mahsulotlari, plastmassa, elektrotexnika va elektronika, soatlar, fotoapparatlar, ximikatlar va o'yinchoqlar import qiladi. 2010 yilda XXRdan 1084 xil mahsulot, Meksikadan esa 997 xil mahsulot import qilinganligini biz 2.2.2- jadvaldan ko'rish mumkin.

3.1.2- jadval

XXR va Meksika davlatlaridagi eksport va import tovari tarkibi 2010 y.⁵¹

Meksikaga eksport qilinadigan mahsulotlari	%da	Meksikaga inport qilinadigan mahsulotlari	%da
Mis	23.8	Elektrmashinalar, apparatlar va zapchastlar	44.8
Temir ruda	23.3	Yuqori texnologiya va kompyuterlar	19.3
Elektrmashinalar, apparatlar va zapchastlar	14.3	O'yinchoqlar va o'yinlar	6.3
Turizm avtomobillari va boshqa avtotransport vositalar	8.8	Optika va fotografiya asboblari va apparatlar.	4.8
Yuqori texnologiya va kompyuterlar	7.0	Plastmassa va undan mahsulotlar	2.5
Kimyo mahsulotlari	4.6	Zapchastlar	2.3
Plastmassa va undan mahsulotlar	2.9	Temir va po'lat mahsulotlari	1.9
Metallurgiya, chugun va po'lat	2.5	Mahsulot ishlab chiqarish uskunalar va detallar	1.9
Paxta	2.1	Xirurgiya va medisina uskunalar	1.6
Alyuminiy	2.1	Kimyo mahsulotlari	1.3

⁵¹ www.fmprc.gov.cn

Jami	91.4	Jami	86.7
Boshqa mahsulotlar	8.6	Boshqa mahsulotlar	13.3
Jami	100.0	Jami	100.0

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, 2010 yilda Meksikaning XXRga qilgan eksport mahsulotlari tarkibi quyidagicha: mis 23.8 %, temir ruda 23.3 %, elektr mashinalar, apparatlar va va ehtiyot qismlar 14.3 %, turizm avtomobillari va boshqa avtotransport vositalari 8.8 %, yuqori texnologiya va kompyuterlar 7.0 %, kimyo mahsulotlari 4.6 %, plastmassa va undan mahsulotlar 2.9 %, metallurgiya, chugun va po'lat 2.5 %, paxta 2.1 %, alyuminiy 2.1 % tashkil etdi.

Undan tashqari, 2010 yilda Meksikaning XXRdan import qilgan mahsulotlari tarkibi quyidagicha: elektr mashinalar, apparatlar va va ehtiyot qismlar 44.8 %, yuqori texnologiya va kompyuterlar 19.3 %, o'yinchoqlar va o'yinlar 6.3 %, optika va fotografiya asboblari va apparatlari 4.8 %, plastmassa va plastmassa mahsulotlari 2.5 %, ehtiyot qismlar 2.3 %, temir va po'lat mahsulotlari 1.9 %, mahsulot ishlab chiqarish uskunalari va detallar 1.9 %, xirurgiya va meditsina uskunalari 1.6 %, kimyo mahsulotlari 1.3 % larni tashkil etdi⁵².

Meksika va XXR o'rtasidagi savdo munosabatlari samarali rivojlanmoqda. Meksika va XXR o'rtasidagi savdo aloqalarining muhimligini inobatga olgan holda bir necha davlat idoralari va ishbilarmonlik doiralari erkin savdo to'g'risida kelishuv imzolashni taklif etdilar. Bu juda qiziqarli variant bo'lib, muhokama uchun ochiq bo'lib kelmoqda.

⁵² www.fmprc.gov.cn

3.2. XXR va Braziliya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarning rivojlanish istiqbollari

Jahon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti tajribasi shundan dalolat beradiki, rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotning real sektorini rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga erishishlari mumkin. Bunda tashqi iqtisodiy siyosat muhim o'rin egallaydi. Buning eng asosiy sababi shundan iboratki, fan-texnika taraqqiyoti natijasida jahon xo'jalik tizimida globallashuv va xo'jalik faoliyatining baynalmilallashuvi jarayonlari kuchaymoqda. Natijada tashqi iqtisodiy faoliyat milliy xo'jalikning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Shunday sharoitda muayyan maqsadga yo'naltirilgan tashqi iqtisodiy faoliyat yuritish iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi.

Braziliya G'arbiy yarimshardagi eng yirik rivojlanib kelayotgan davlatdir, XXR esa dunyodagi eng yirik rivojlanayotgan davlatdir. G'arb tadqiqotchilarining baholariga ko'ra 2050 yilga kelib BRHXJ (ya'ni Braziliya, Rossiya, Hindiston, XXR, JAR) kombinatsiyalangan iqtisodi dunyodagi eng boy davlatlar kombinatsiyalangan iqtisodini ortda qoldiradi. XXR va Braziliya G-8 ning (8 davlatdan iborat guruh) oliy darajadagi uchrashuvlarida ishtirok etadi va G-20 ishtirokchisi hisoblanadi. XXR va Braziliya G-8ning rasmiy a'zosi bo'lmasada, Pekin va Braziliyaning oliy darajadagi uchrashuvlarda ishtiroki bu rivojlanayotgan davlatlarning o'sish sur'atlari yuqoriligidan dalolat beradi.

Global moliyaviy inqiroz natijasida G-20 chindan dunyo iqtisodini tiklash jarayonining yetakchi siyosiy lokomotiviga aylandi. Moliyaviy inqirozdan chiqqan dunyo xalqaro tizimida hokimiyatning qayta taqsimlanishi natijasida XXRning rivojlanayotgan davlatlar bilan, xususan uning "Janub-Janub" ikki tomonlama munosabatlari strategiyasida muhim o'rin tutgan Braziliya bilan munosabatlarini yangi sifat bosqichga ko'tarildi.

2009 yilda Braziliya va XXR o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatilganligining 35 yilligi nishonlandi. Braziliya Prezidenti Luis Inasiu Lula da Silva 18 maydan 20 maygacha XXRga ikkinchi bor rasmiy tashrif buyuradi.

XXRning Braziliya bilan munosabatlariga XIX asrda asos solingan. O'sha vaqtda xitoyliklar choy yetishtirish uchun ishchi kuchi sifatida Makao (XXRning provinsiyasi) orqali Braziliyaga jo'natilgan edi. XIX asr o'rtalarida Braziliya qulchilik bekor qilinganidan so'ng yetishmayapgan ishchi kuchining o'rnini to'ldirish uchun ko'plab xitoylik ishchilarni import qiladi va shu maqsadda Sin sulolasi hukmronlik qilayotgan Xitoy bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishni taklif etadi. 1880 yilda Xitoy va Braziliya do'stona munosabatlar to'g'risida shartnoma imzolaydilar. Shartnoma shartlarida zudlik bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish hamda insonlar va tovarlar ikki davlat o'rtasida bimalol harakatlanishi ko'zda tutilgan edi.

XXR 1972 yilda BMT a'zo bo'lgandan so'ng Lotin Amerikasining ko'pgina davlatlari o'zlarining XXRga munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni boshlaydilar. 1974 yil 15 mayda XXR va Braziliya o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatiladi, 1984 yil may oyida Braziliya prezidenti Joao Batista Figeyredu XXRga tashrif buyuradi. Natijada XXR rahbari Den Syao Pin Figeyreduning tashrifi munosabati bilan o'zining xalqaro diplomatik munosabatlar tizimidagi taniqli "Sharq va G'arb" hamda "Shimol va Janub" nazariyasini ilg'or surdi. Den Syao Pinning fikricha, dunyo hamjamiyati oldida turgan masalalar ichida ikkita eng muhimi bu Sharq va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshilikni barham toptirish orqali dunyoda tinchlikni mustahkamlash, shuningdek rivojlangan davlatlar (shimol) va rivojlanayotgan davlatlar (janub) o'rtasidagi tafovutni kamaytirish orqali insoniyat rivojlanishiga ko'maklashish. Deyarli o'n yildan keyin 1993 yilning noyabr oyida XXR raxbari Szzyan Szeminning Braziliyaga tashrifi chog'ida ikki davlat o'rtasida strategik hamkorlik o'rnatilishini e'lon qildilar.

Braziliya aholisi 192 mln.kishini tashkil etadi, uning YaIM hajmi 1,66 trln. AQSh dollarga yetgan, 2010 yilda YaIM aholi jon boshiga 8,67 trln. AQSh dollarni tashkil etgan, bu esa Braziliyani XXR eksportidagi mehnat resurslarini ko'p talab qiladigan mahsulotlari uchun ulkan bozorga aylantiradi, o'z o'rnida aholisi 1,6 mlrd. kishi, YaIM hajmi 4 trln. AQSh dollarni bo'lgan XXR,

Braziliya uchun juda foydali hamkordir. Dunyo bozorida narxlar baland darajada bo'lgan bir vaqtda XXRning tabiat resurslariga talabi ortib borishi munosabati bilan Braziliya so'nggi yillarda ushbu davlat bilan hamkorlikdan yuqori daromad olmoqda.

XXR Savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra XXR va Braziliya o'rtasidagi savdo hajmi 2001 yilda 3,7 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 50 mlrd. AQSh dollarga yetdi. 2010 yilda Braziliya XXRga 1,74 mlrd. AQSh dollarlik tovar eksport qildi, bu degani Braziliya XXR tovarlari uchun yirik bozorga aylandi.

2011 yil natijalariga ko'ra, Braziliya va XXR tovar aylanmasi 77,6 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan, unda Braziliyaning Xitoyga eksporti ortib borishi kuzatildi. Xitoyning Braziliyaga eksporti esa 17,1 %ni va importi 14% ni tashkil etdi. Buni biz jadval 3.2.1. dan ko'rishimiz mumkin.

Jadval 3.2.1.

**Braziliyaning XXR bilan tashqi savdosining rivojlanish dinamikasi
(2007-2011 y.)⁵³ mlrd. AQSh dollarda**

Yillar	Tovar aylanmasi	eksport	Dinamika, %da	import	Dinamika, %da	saldo
2007	23,3	10,7	27,9	12,6	57,9	-1,8
2008	36,5	16,5	53,7	20,0	58,7	-3,5
2009	36,9	21,0	27,1	15,9	-20,6	5,0
2010	56,3	30,7	46,6	25,5	60,8	5,1
2011	77,6	44,3	43,9	32,8	28,1	11,5

XXR va Braziliya bir birining iqtisodini to'ldirib turadi va ikkala davlat iqtisodidagi afzal tomonlari bir birining bozordagi ulushini oshirishga, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga va iqtisodiy o'sishga ko'maklashishga xizmat qiladi. Braziliya tabiat resurslariga (masalan, boksitlar, tilla, temir rudasi, marganes, nikel, fosfatlar, platina, qalay, uran, neft, suv energiyasi, yog'och-taxta) boy davlat. Masalan, dunyoda eksport qilinadigan temir rudasining 22,5

⁵³ Braziliyaning rivojlanish, sanoat va tashqi savdo vazirligi sekretarianing ma'lumotlariga asoslanib, muallif tomonidan hisoblangan.

%i Braziliyaga to'g'ri keladi. XXR iqtisodi juda katta miqdorda resurs talab va davlat o'zining yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun tabiat resurslari importiga qaram. 2010 yil sentyabriga qadar XXR Braziliya iqtisodining tog'-kon sanoati, yog'ochni qayta ishlash hamda mototsikl va maishiy elektronika ishlab chiqarish sohalariga 210 mln. AQSh dollar miqdorida investisiyalar kiritdi.

Hamkorlikni rivojlantirishning yana bir sohasi Braziliya infrastrukturasidir. Braziliya o'z infrastrukturasini yangilashga qaror qildi va 2007 yilning boshida "Jadal o'sish reja"sini tuzib chiqdi va XXRga asbob-uskunalar va texnologiyalar yetkazib berishni investisiyalashni taklif etdi.

3.2.2-jadval

Braziliyaning XXRga eksportining tovar tarkibi (%)⁵⁴

Mahsulotlar	2000 y		2010 y	
	mln. AQSh doll	(%)	mln. AQSh doll	(%)
Meva yog'i va urug'lar	171,9	10,5	2077,1	28,2
Moy va yog'lar	61,3	4,5	543,4	12,9
Temir ruda	322,7	14,7	2921,2	16,9
Yog'och va qurilish mollari	13,9	0,5	157,2	3
Sellyuloza	71,6	4,3	393	7,4
Qog'oz	11,9	0,3	38,8	0,8
Paxta	0,2	0,01	26,3	0,4
Temir va po'lat	33,8	0,5	657,9	2,8
Avtomobil, traktorlar va ehtiyot qismlar	5,5	0,2	134,9	1,0

Jadval ma'lumolaridan ma'lumki, 2000-yilda Braziliyaning XXRga qilgan eksport tarkibini quyidagicha: meva yog'i va urug'lar 10.5 % (171,9 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkichkich 2010 yilda 28.2 % (2077.1 mln. AQSh dollar), moy va yog'lar 2000 yilda 4,5 % (61,3 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkichkich

⁵⁴Braziliya Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

2010 yilda 12,9 % (543,4mln. AQSh dollar), temir ruda 2000-yilda 14,7 % (322,7mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 16,9 % (2921,2 mln. AQSh dollar), yog'och va qurilish mollari 2000 yilda 0,5 % (13,9 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 3 % (157,2 mln. AQSh dollar), selluloza 2000 yilda 4,3 % (71,6 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 7,4 % (393 mln. AQSh dollar), qog'oz 2000 yilda 0,3 % (11,9 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 0,8 % (38,8 mln. AQSh dollar), paxta 2000 yilda 0.01% (0,2 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 0,4% (26,3 mln. AQSh dollar), temir va po'lat 2000 yilda 0,5 % (33,8 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 2,8 % (657,9mln. AQSh dollar), avtomobil, traktorlar va zapchastlar 2000 yilda 0,2 % (5,5 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 1 % (134,9 mln. AQSh dollar) tashkil etgan.

XXR Braziliyaga elektronika va to'qimachilik mahsulotlari eksport qiladi va u yerdan xom-ashyo hamda xalq iste'moli tovarlari import qiladi. XXR Braziliya bilan savdo munosabatlarida defisitga ega bo'lib, 2001 yilda defisit 1 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilga kelib (yanvardan oktyabrgacha) bu ko'rsatkich 9 mlrd. AQSh dollarga yetdi.

3.2.3-jadval

Braziliyaning XXRga importining tovar tarkibi (%)⁵⁵

Mahsulotlar	2000 y		2010 y	
	Mln.dol	(%)	Mln.dol	(%)
Asbob uskuna	127,2	1,4	438,6	4,7
Mashinlar va elektrotexnika	254,3	3,3	1496,2	16,6
Optika forografiya mahsulotlari	41,8	2,4	244,3	10,3
Sintetik tolalar	3,7	0,9	152,8	23,4
Kiyim kechak va aksesuarlar	15,6	28,7	22,8	42,2
Trikotaj kiyimlar	23,3	20,8	51,3	52,4
O'yin va yo'inchoqlar	55,9	42,1	77,8	72,2

⁵⁵ Braziliya Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

Jadval ma'lumotlaridan ma'lumki, 2000 yilda Braziliyaning XXRga qilgan import tarkibini quyidagicha: Asbob uskuna 1,4 % (127,2 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 4,7 % (438,6 mln. AQSh dollar), mashinalar va elektrotexnika 2000 yilda 3,5 % (254,3 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 16,6 % (1496,2mln. AQSh dollar), optika forografiya mahsulotlari 2000 yilda 2,4 % (41,8 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010- yilda 10,3 % (244,3 mln. AQSh dollar), sintetik tolalari 2000 yilda 0,9 % (3,7 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 23,4 % (152,8 mln. AQSh dollar), kiyim kechak va aksessuarlar 2000 yilda 28,7% (15,6 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 42,2 % (22,8 mln. AQSh dollar), trikotaj kiyim 2000 yilda 20,8% (23,3 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 52,4 % (51,3mln. AQSh dollar), o'yin va yo'incholqlar 2000 yilda 42,1 % (55,9 mln. AQSh dollar) va bu ko'rsatkich 2010 yilda 72,2 % (77,8 mln. AQSh dollar) tashkil etgan.

Braziliyadagi eng keng ko'lamli XXR investisiyasi Baosteel kompaniyasining Braziliyaning Vale Du-Riu-Dosi (CVRD) qazilma xom-ashyolarini qazib olish kompaniyasi bilan hamkorlikda janubiy Espiritu-Santu shtatida metallurgiya zavodi qurilishi bo'ldi. Investisiyaning umumiy hajmi 3 mlrd. AQSh dollar bo'lib, 60 % Baosteelga, 40 % CVRDga tegishli bo'lgan.⁵⁶

2008 yil oktabr oyiga kelib XXR iqtisodiga investisiya qilingan Braziliya aksiyalari 270 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Sarmoya asosan qayta ishlash sanoati, samolyotsozlik, kompressorlar, avtomobillarning ehtiyot qismlari ishlab chiqarish , GES, mashinasozlik va to'qimachilik sohalariga kiritildi. Eng yirik investisiya Embraer tomonidan 2002 yilda samolyotsozlik sohasiga kiritilgan. XXR ommaviy aloqa vositalari bu loyihani ishlab chiqarish sektoridagi "Janub-Janub" hamkorlik modeli deb atadilar⁵⁷.

⁵⁶ Baosteel.com, 9 oktabr 2010 y.

⁵⁷ Sinhua agentligi, 8 noyabr 2007 y.

XXR, shuningdek, Braziliyaning energetika sektoridan manfaatdor. XXR Raisi o‘rinbosari Si Szin Pining 2009 yil fevral oyidagi Braziliyaga qilgan tashrifi chog‘ida XXR va Braziliya kredit ajratish to‘g‘risida bitim tuzdilar. Bitimga ko‘ra XXR taraqqiyot banki Braziliyaga neft zahiralarini topish bo‘yicha geologik qazilma ishlarini amalga oshirish uchun 10 mlrd. AQSh dollari miqdorida kredit ajratadi. Evaziga Braziliya XXRga kuniga 100 ming barrel neft yetkazib berishga rozi bo‘ldi⁵⁸.

XXR va Braziliya inqirozga javoban umumiy javob tayyorladilar. Inqiroz sabablariga asoslangan holda prezident Lula 2008 yil 8 noyabrda San-Pauluda bo‘lib o‘tgan G-20 moliya vazirlarining yig‘ilishidagi o‘z ma‘ruzasida shunday dedi: “Inqiroz rivojlangan davlatlarda boshlandi. Bu bozor o‘zini o‘zi boshqarishiga ko‘r-ko‘rona ishonish va umuman olganda moliyaviy agentlarning faoliyati ustidan nazoratga o‘rnatilmaganida”⁵⁹.

Prezident Lulaning fikrini, XXRning sobiq Bosh Vaziri Ven Szyabao ham ma‘qulladi. 2 fevraldagi Kembridj universitetidagi ma‘ruzasida u shunday dedi: “Jahon moliyaviy inqirozi shuni ko‘rsatdiki, butkul nazoratsiz qolgan bozor iqtisodi ishlashga qodir emas. Biz moliyaviy innovatsiya va boshqaruv, moliyaviy sektor va real iqtisod o‘rtasida, shuningdek, jamg‘armalar va iste‘mol o‘rtasidagi muvozanatni ushlab turishimiz kerak”⁶⁰.

Darhaqiqat, moliyaviy inqiroz sharoitida XXR va Braziliya hamkorligi uchun bir necha front yuzaga keltirdi. Joriy moliyaviy inqiroz XXR va Braziliya xalqaro moliya tizimini isloh qilish masalalari bo‘yicha o‘z pozitsiyalarini tizimli asosda muvofiqlashtirishga undadi. Shu sababdan XXR va Braziliya hamda boshqa rivojlanayotgan davlatlarning hamkorlikdagi xatti-harakatlari Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasida katta o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Braziliya Moliya vaziri Gido Montega turli qoidalarga asoslanadigan xalqaro moliyaviy tizim tuzilishi kerakligini va bu tizimda BRHXJ (Braziliya,

⁵⁸ Domain-b.com, 19 fevral 2012 y.

⁵⁹ Sinhua agentligi 3 fevral 2007 y.

⁶⁰ Braziliya Moliya vazirlig dokladi. 11 avgust 2008 y.

Rossiya, Hindiston, XXR, JAR) davlatlari muhim o‘rin egllashi kerakligini ta’kidlab o‘tdi.

Ikki davlat rahbarlari bir necha bor ikki tomonlama munosabatlarni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish istagini bildirganlar. XXR xalq vakillarining Umum Xitoy yig‘ilishi Doimiy qo‘mitasi raisi U. Bango o‘zining 2006 yil 31 avgustdagi Braziliya Kongressiga murojaatida XXR Hukumati XXR va Braziliya munosabatlariga katta ahamiyat berishini va Braziliya XXRga strategik hamkor va do‘stona davlat ekanligini ta’kidlab o‘tdi. XXR viseprezidenti Si bilan 19 fevralda bo‘lib o‘tgan uchrashuvda prezident Lula Braziliya XXR bilan do‘stona aloqalar rivojlanayotganidan qoniqish hosil qilganini va Braziliya XXR bilan birga ishlashga, strategik hamkorlikni chuqurlashtirishga tayyorlagini va bu munosabatlarga alohida e’tibor qaratilayotganini aytib o‘tdi.

Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida XXR va Braziliya iqtisodiyot va boshqa sohalarda o‘zaro manfaatli aloqalarni mustahkamalashlari, “Janub-Janub” hamkorligini yanada chuqurlashtirishlari mumkinligini tushundilar. Shunday qilib, dunyodagi eng yirik rivojlanayotgan davlat va G‘arbiy yarim shardagi eng yirik rivojlanayotgan davlat o‘rtasidagi munosabatlarning kelajagi porloq.

Braziliya Markaziy banki ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, Braziliya iqtisodiga kiritilgan 48 mlrd. AQSh dollar miqdoridagi to‘g‘ridan to‘g‘ri investisiyalardan 17 mlrd. AQSh dollar XXR ulushiga to‘g‘ri keladi. Taqqoslash uchun aytib o‘tamiz, 2009 yilda bu ko‘rsatkich 300 mln. AQSh dollarni tashkil etgan.

Ikki tomonlama munosabatlar jadal rivojlanib kelayotganiga qaramay, ushbu munosabatlarning yanada yuqori bosqichlarga ko‘tarilishi yo‘lida ba’zi to‘siqlar yuzaga keldi, bularning asosiysi bu savdo kelishmovchiliklarining ortib borishi.

Iqtisodiy aloqa mustahkamlanishi bilan savdo kelishmovchiliklari ham yuzaga kela boshladi. Braziliya XXR eksportiga nisbatan birinchi antidemping

choralarini 1989 yilda joriy qildi. XXRga 2004 yil noyabr oyida “bozor iqtisodi” maqomi berilgan bo‘lsada Braziliya xaligacha XXRdan antidemping tariflarini undirmoqda. 2005 yil oktabr oyida Braziliya Prezidenti Luis Inasiu Lula da Silva maxsus farmoyish imzoladi. Farmoyishga muvofiq Braziliya hukumati 2013 yilgacha vaqtinchalik kafolat joriy etish orqali XXR tovarlari importini chekladi.

Braziliyaning raqobatga bardoshsizligini uning milliy valyutasi kursi tez sur‘atlarda oshib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Milliy valyutasi kursi qiymat jihatdan so‘nggi ikki yil ichida 30 %ga, 2002 yildan beri esa deyarli 100 %dan ko‘pga oshdi⁶¹. Davlat valyutasi kursining oshishi uning eksporti kengayishiga to‘sqinlik qiladi.

Ba’zi braziliyaliklarning ongiga o‘rnashib qolgan “XXR havfi” Braziliyada XXRga qarshi antidemping choralar bir necha bor qo‘llanilishiga olib keldi. Bu fikrni bildirganlar XXR mahsulotlarining ko‘plab oqib kelishi Braziliya korxonalari manfaatlariga zid deb hisoblaydilar. Masalan, Braziliyaning eng qudratli biznes birlashmasi San-Paulu shtati sanoat federatsiyasining savdo masalalari bo‘yicha rahbari, San-Paulu shtati sanoati vakili Roberto Djiannetti da Fonseka “XXR strategik hamkor emas va Pekin xom-ashyoni qo‘shimcha qiymatsiz sotib olishni xohlaydi” degan fikrni bayon qildi⁶².

Ba’zi braziliyaliklar “Tutun ko‘pu, olov yo‘q” deya, mintaqadagi XXR investisiyalaridan hafsalasi pir bo‘ldi. Sababi XXR raisi Xu Szintao 2004 yilda Braziliyaga qilgan tashrifi doirasida Braziliya Kongressidagi ma’ruzasida Lotin Amerikasiga 100 mlrd. AQSh dollar miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri investisiyalar kiritishni va’da qilib o‘z va’dasining ustidan chiqmagan. Aslida esa, XXR raisi Xu Szintao 2010 yilga kelib, XXR va Lotin Amerikasi o‘rtasidagi savdo hajmini nazarta tutgan edi. Tilga olingan mablag‘ning to‘g‘ridan to‘g‘ri investisiyalarga aloqasi bo‘lmagan. Investisiyalar borasida esa, XXRsi KPsining sobiq raisi Xu Szintao XXR va Lotin Amerikasi mintaqadagi XXR investisiyalarining joriy

⁶¹ Reuters, 20 avgust 2008 y.

⁶² The Economist, 4 avgust 2009 y.

zahirasini ikki barobar oshirib, 4 mlrd. AQSh dollarga yetkazishga erishishni maqsad qilib qo'ygan edi⁶³.

Bugungi kunda bu ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalari yetarli darajada bir-biriga yaqin bo'lib, Braziliya-XXR tovar aylanmasi 2012 yilda 85,7 mlrd. AQSh dollarni tashkil etdi. Aslida esa, Xitoy 2009 yildayoq, Braziliyaning yirik hamkorlaridan biriga aylangan bo'lib, uning importi va eksportida ham yetakchi o'rinlarni egalladi. O'z navbatida Braziliya ham XXRning asosiy yirik hamkorlari orasida 9-o'ringa chiqdi.

Braziliya markaziy bankining ma'lumotiga ko'ra, ikki mamlakat orasidagi tovar aylanmasi 2003 yildagi 6,6 mlrd. AQSh dollardan 2012 yilga kelib, qarayib 85,7 mlrd. AQSh dollarga etgan, bu esa 9 yil ichida deyarli 13 barobarga o'sganligidan dalolat deradi.

XXR sining San-Paulo dagi konsulining fikricha, ikki tomonlama tovar aylanmasi va investitsiyalar hajmi "sakrash sifatidagi rivojlanishni" amalga oshirdi, lekin ularning salohiyat imkoniyatlari bilan taqqoslasak, ularning bu miqdoriy o'sish sur'atlari "hali juda chegaradan uzoqdir", har ikkala mamlakatda bir-birini iqtisodiy jihatdan to'ldirish imkoniyatlari kattadir.

Braziliya deputatlar palatasi raisi Marko Mayaning XXRga safarida qilgan bashorati bo'yicha ikki tomonlama savdo hajmi yaqin kelajakda 20-25 %ga ko'payish ehtimoli mavjud.

2011 yilning 12 aprelida Pekinda Braziliya Prezidenti Dilma Russeff va sobiq XXR KP raisi Xu Szintao bilan uchrashuv bo'lib o'tib, unda tomonlar quyidagi yonalishlardagi hamkorlik bitimlarini imzoladilar: siyosat, harbiy soha, sport, ta'lim, qishloq xo'jaligi, elektroenetgetika, telekommunikatsiya va aviatsiya. Undan tashqari, iqtisodiyotning yoqori texnologik tarmoqlariga o'zaro investitsiyalar ajratish masalalari ham ko'rib chiqilib, bu ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Braziliyaning Kampanas shahrida nanotexnologiyalar

⁶³ Sinhua agentligi, 13 noyabr 2004 y.

sohasida innovatsiyalar va ilmiy izlanishlarni olib borishga mo'ljallangan markazni tashkil etish ko'zda tutildi.

Ushbu markazni tashkil etishning birlamchi harajatlari unchalik katta emas, ya'ni 6,3 mln AQSh dollar, lekin XXRning yaqin 5 yil ichida, 2015 yilga qadar Braziliya milliy iqtisodiyotining strategik sohaslariga 1,5 trln. AQSh dollar investitsiya kiritishni mo'ljallaganligiga kelganda, mazkur markazni tashkil etish harajatlari juda ham kichik ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar hozirgi kunda BRIKC chegarasida davom etmoqda va ular hamkorliklarini xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Undan tashqari, XXR kompaniyalari Braziliyaning telekommunikatsiya sohasiga investitsiyalarni faol kiritmoqda. Masalan, XXRning mazkur soha bo'yicha yirik investor va bozor ishtirokchisi "Huawei" kompaniyasi GSM mobil aloqa tarmog'ini Lotin Amerikasi mamlakatlarida qurish bo'yicha tanlovda yutib, Braziliya uchun bu kompaniya GSM mobil aloqa tarmog'ini qo'llab-quvvatlashda zarur bo'lgan uskunalarni etqazib berishni o'z zimmasiga oldi. Xitoyning "Huawei" kompaniyasi Braziliya bozoridagi 500 ta kompaniyalar orasida raqamli aloqa sohasi bo'yicha 10-o'rinni egalladi.

Xitoyning "Hay-tek" sohasi bo'yicha yana bir yirik investor – bu "Foxcom" kompaniyasi hisoblanib, u Xitoy hududida "Apple" mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Mazkur kompaniya Braziliyaga yig'ish ishlari bo'yicha ishlab chiqarishni amalga oshirish uchun 12 mlrd. AQSh dollarlik investitsiya qo'yishni mo'ljallab, mana shu loyiha 2012 yilda amalga oshib, xitoy korxonalarida tayyorlangan ipad 3 paydo bo'ldi.

Ikki mamlakatning avtomobilsozlik sohasidagi hamkorligiga kelsak, XXRning "Cheri Automobile Co" kompaniyasi 2013 yilda yiliga 150 ming dona avtomobilni yig'adigan zavodni ishga tushirishni mo'ljalladi. Unga kirgizilishi lozim bo'lgan investitsiya hajmi 400 mln. AQSh dollarni tashkil etmoqda. Shular qatorida Xitoyning "Lifon" va Braziliyaning "Effa" avtomobilsozlik

guruhlari orasidagi hamkorlik asosida ham yiliga 10 000 dona avtomobil ishlab chiqaruvchi zavod qurilishi rejalashtirildi.

Xitoyning Braziliyaga qo'yayotgan investitsiyasi hajmi yiliga 300 mln. AQSh dollarni tashkil etishi bizga ma'lum ekanligini ta'kidlagan holda, bugungi kunda XXR-Braziliya o'zaro savdo-iqtisodiy aloqalarining tez sur'atlarda rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin.

XXR-Braziliya munosabatlarining eng istiqbolli hamkorlik borasidagi sohalari kosmik va aviatsiya texnikasini yaratish hamda ulardan samarali foydalanish hisoblanmoqda.

XULOSA

XXR va Lotin Amerikasi davlatlarilari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan magistrlik dissertatsiya natijalarini umumlashtirish bizga quyidagi xulosalarga kelish imkonini yaratdi:

1. Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonining kuchayishi va oqibatda davlatlarning bir-biriga bog'liqligini ortishi natijasida, ulardagi tashqi iqtisodiy siyosat rivojlanib boradi. Rivojlanayotgan davlatlar uchun ularning tashqi savdo aloqalari ichki iqtisodiy rivojlanish uchun fundament va o'ziga xos turtki bo'lib xizmat qilishi mumkin.

2. XXRsining mislsiz ijtimoiy-iqtisodiy muvaffaqiyatlari XXI asrning birinchi o'n yillarida jahon iqtisodiy tarixida eng muhim hodisalardan biri bo'ldi. XXRda YaIMning o'sish sur'atlari butun dunyoni qoyil qoldirib, yiliga o'rtacha 8,5-10 %da bo'ldi. Deyarli 35 yillik ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar davrida XXR barqaror rivojlanayotgan davlatga aylandi. Tashqi iqtisodiy aloqalar borasida tashqi dunyoga XXRning ochiqlik siyosati ilg'ari surildi. Bunday siyosat yangi prinsiplar asosda xalq xo'jaligining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun sharoit yaratdi.

3. XXRning zamonaviy tashqi iqtisodiy siyosati shakl-tamoyili turfa xilligi bilan ajralib turadi. An'anaviy tashqi savdodan tashqari, xorij kapitalini: kreditlar, to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar shaklida mamlakat iqtisodiyotiga jalb qilindi, texnika va texnologiya, ishlab chiqarish kooperatsiyasi, ilmiy-texnik hamkorlik, turizm industriyasi va boshqa sohalar rivojlantirildi. Ochiqlik siyosati bilan bir qatorda, XXRda chet el davlatlari bilan hamkorlikning uzoq muddatli huquqiy bazasi yaratildi, chet el kontragentlari faoliyati uchun imtiyozlar yaratilgan ko'p vazifali Erkin Iqtisodiy Hududlar (EIH) tashkil etildi.

4. XXRning tashqi iqtisodiy siyosati ko'p qirrali dunyo konsepsiyasiga asoslanadi, uning mohiyati bir necha "kuch markazi" rivojlanishi mumkinligi ob'ektiv qonuniyatini va ular tinch-totuv yashashi, o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishlari zarurligini tan olishdan iborat. XXR klassik balans konsepsiyasiga asoslangan siyosatdan nafaqat, u yoki bu davlatning real qudrati,

balki uning ob'ektiv milliy manfaatlari inobatga olinadigan xalqaro munosabatlar tizimini yaratishga o'tishni maqsad qilib qo'ygan.

5. Hozirgi XXR tutgan yo'l asosida "Ochiq eshiklar siyosati" g'oyasi yotadi. Uning mohiyati shundaki, hozirgi zamon sharoitida "Ochiq eshiklar siyosati" va uning dunyo maydonidagi ta'sir kuchi nafaqat, uning ishlab chiqarish salohiyati, balki iqtisodiy va ilmiy-texnik rivojlanish darajasi, shuningdek, chuqur o'ylangan tashqi siyosati bilan ham belgilanadi. Bunda davlatning iqtisodiy salohiyati muhim omil bo'lib qoladi.

6. XXRning ochiq tashqi iqtisodiy siyosati turli shakllarda amalga oshiriladi. Tashqi savdoning faol rivojlanishi to'g'ridan to'g'ri, ba'zida portfelli, ssuda investisiyalari ko'rinishida chet el kapitalini jalb qilish bilan to'ldiriladi. XXRning chet elga texnika va texnologiyalari eksporti kengaymoqda, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va ilmiy-texnik hamkorlik rag'batlantirilmoqda. Ochiqlik siyosatini olib amalga oshirish xalqaro mehnat taqsimotida o'z pozitsiyasini himoya qilish, unda o'z o'rnini topish yo'lidan ketmoqda. So'nggi yillarda ba'zi iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha, XXR iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar qatoriga kirdi, eksportning umumiy hajmi bo'yicha esa, dunyoning birinchi beshta davlatlari qatoridan joy oldi.

7. XXRning Jahon Savdo Tashkilotidagi a'zolicigini tiklash uning dunyo xo'jalik aloqalariga muvaffaqiyatli qo'shilishiga yordam beradi, biroq bu davlatdan ba'zi qurbonliklarni ham talab qiladi. Mutaxassislar fikricha, dunyo savdosiga qo'shilishdan ko'riladigan daromad, ichki bozor liberallasuvi bilan bog'liq zarardan ancha ko'p. Talab va taklif bilan boshqariladigan kapital, tovar va g'oyalar harakati mehnat samaradorligi, savdo hajmi va milliy daromad oshishiga turtki bo'ladi. Mutaxassilar bashorat qilishicha, ortiqcha to'siqlarni olib tashlab, import uchun cheklovlarni bekor qilish, past tariflarda va kvotalarsiz "ravshan" tizim yaratish yo'lida import siyosatini rivojlantirib, XXR savdo hajmi bo'yicha AQShdan keyin ikkinchi davlatga aylandi, uning dunyo iqtisodiyotidagi ulushi uch martadan ortiq o'sib, 12 %ga yetdi;

8. XXRning kelajagi to'g'risida fikr yuritilar ekan, XXR olimi Bao Yunszyan fikricha, XXR eng murakkab muammolarni hal qilish imkonini beradigan afzalliklarga ega va islohotlarning uzoqni ko'zlagan rejalari hayotga tatbiq etilishiga umid qilish mumkin. Afzalliklardan biri - keng hudud va tabiiy va mehnat resurslariga boy, yer va ishchi kuchining nisbatan arzonligi, iqtisodiy o'sish natijasida, jahon bozorida yaqin-yaqingacha xitoy tovar va xizmatlariga bo'lgan ulkan talabning mavjudligi;

9. So'nggi yillarda XXR va Lotin Amerika davlatlari o'rtasidagi savdo aloqalar sezilarli darajada o'sdi. Xususan, 2000-2010 yillar davomida XXRning Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo aylanmasi 10 martaga oshib, 111 mlrd. AQSh dollardan ortdi. Shu bilan birga savdo aylanmasi mintaqaning barcha davlatlari bilan bir xil sur'atlarda o'zgarmaganligini ta'kidlash zarur. Tahlil qilinayotgan davr mobaynida importning eksportga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda o'sganligi kuzatiladi: agar 2000-2010 yillar davomida XXRning eksport qilingan tovar va xizmatlar miqdori 22.7 martaga o'sgan bo'lsa, import bo'yicha bu ko'rsatkich 4.6 martani tashkil etgan. XXR va Lotin Amerikasi davlatlari bilan savdo aloqalaridagi ijobiy tendensiya shundan iboratki, unda 2000 yildan boshlab barcha yillarda ijobiy saldo kuzatiladi.

10. Xitoy Lotin Amerikasida Meksikaning (Kanada va Germaniya bilan bir qatorda) 2-o'rinlarni egallab kelayotgan hamkori hisoblanadi. Meksika XXRning Lotin Amerikasidagi eng yirik eksport bozoriga aylandi. Oxirgi yillarda Meksikaning Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan savdo aloqalari manfiy saldoni ko'rsatmoqda, 17.6 mlrd. AQSh dollardan 48.3 mlrd. AQSh dollargacha o'sidi. Meksika va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan savdo aloqalarining o'sishida XXRning hissasi juda katta. Meksika va XXR o'rtasidagi tovar aylanmasi 2005-2010 yillarda 18.8 mlrd. AQSh dollardan 35 mlrd. AQSh dollarga o'sganligini e'tirof etish zarur.

11. XXR Savdo vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, XXR va Braziliya o'rtasidagi savdo hajmi 2001 yilda 3,7 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda 50 mlrd. AQSh dollarga yetdi. 2010 yilda Braziliya XXRga 1,74

mlrd. AQSh dollarlik tovar eksport qildi, bu degani Braziliya XXR tovarlari uchun yirik bozorga aylandi.

2011 yil natijalariga ko'ra, Braziliya va Xitoy tovar aylanmasi 77,6 mlrd. AQSh dollarni tashkil etgan, unda Braziliyaning XXRga eksporti ortib borishi kuzatildi. XXRning Braziliyaga eksporti esa 17,1 % va importi 14 %ni tashkil etdi. Bugungi kunda bu ikki mamlakat o'rtasidagi savdo aloqalari yetarli darajada bir-biriga yaqin bo'lib, Braziliya va XXR tovar aylanmasi 2012 yilda 85,7 mlrd. AQSh dollarni tashkil etdi. Aslida esa, XXR 2009 yildayoq, Braziliyaning yirik hamkorlaridan biriga aylangan bo'lib, uning importi va eksportida ham yetakchi o'rinlarni egalladi. O'z navbatida Braziliya ham Xitoyning asosiy yirik hamkorlari orasida 9-o'ringa chiqdi. Ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalar hozirgi kunda BRIKC chegarasida davom etmoqda va ular hamkorliklarini xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilmoqda.

12. XXR hukumati tashqi siyosatining uzoq kelajakka mo'ljallangan maqsadi mamlakatni modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan xalqaro maydonda tinchlikni saqlash hamda ko'p qirrali dunyoni shakllantirish va XXRni uning muhim qirralaridan biri sifatida tan olinishiga erishish, bu o'z navbatida davlat ichida erishilgan iqtisodiy islohotlar samarasi bo'lgan butun tashqi siyosiy salohiyatdan to'liq foydalanish imkonini beradi. Xitoy ko'p qirrali tashqi siyosatni olib borar ekan, u rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar bilan davlatlararo aloqalarni faol amalga oshirmoqda, qo'shni davlatlar bilan ham do'stona munosabatlarini ShOS chegarasida muvaffaqiyatli tarzda olib bormoqda.

Umuman, XXRning Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish tajribasi biz kabi rivojlanayotgan mamlakat uchun juda qadrlil hisoblanadi. Ayniqsa, mamlakatlar o'rtasidagi uzoq masofa ham ularni turli sohalarda hamkorlik qilishlari uchun to'siq bo'lolmagani, ularning o'zaro manfaatdorlik pozitsiyalarida turib aloqalarni yanada mustahkam qilish yonalishlarini izchillik bilan amalga oshirib kelayotganliklari bizga katta saboq bo'ladi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" gi (yangi tahriri) Qonuni 26.05.2000 y. O'R OM Axborotnomasi 2000 5-6 son.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining "Eksport nazorati to'g'risida"gi Qonuni 26.08.2004y. O'R OM Axborotnomasi 2004 9-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmoyishlari:

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 26.09.2003 y.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 11.03.2005 y.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksport import operatsiyalarini tartibga solish borasidagi qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori 19.09.2005 y. O'R qonun hujjalari to'plami 40 – son.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

- 3.1. I. A. Karimov. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". – T.: O'zbekiston, 2009 y. B.25-27.
- 3.2. I.A. Karimov. "2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tariladigan yil bo'ladi". O'zbekiston Respublikasi I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi.//Xalq so'zi, 20.01.2012 y, № 14.
- 3.3. I.A. Karimov. "Bizning yo'limiz – demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizasiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir". Prezident Islom

Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 19 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. //Xalq so‘zi, 8.12.2011 y.

- 3.4. I.A Karimov. ”Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizasiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi xalqaro konferensiyaning ochilish marosimidagi nutqi // Xalq so‘zi, 18.02.2012 y.

4. Monografiyalar, kitoblar, maqolalar.

- 4.1. Абрамов В.Л. Мировая экономика: Учебное пособие. – 3-е издательство, перераб. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К°”, 2006 г. – с 217.
- 4.2. Адвокушин Е.Ф. Теоретические основы экономической реформы в КНР. - Москва, из-во ВШПИ, 2004 г. – с 227.
- 4.3. Анисимова А.Н. Экономический анализ развития КНР. - М.: Наука. 2001 г. – с 219.
- 4.4. Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая. - М.: Магистр, 2009 г. – с 265.
- 4.5. В. Гельбрас. Тридцатилетие эпохи “реформ и открытости” в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009 г.
- 4.6. Гельбрас В. Цена экономических успехов Китая. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2007 г.
- 4.7. Гельбрас В., Кузнецова В. КНР. //МЕиМО, №8, 2001 г.
- 4.8. Завадский М. Спад на фоне роста. //Эксперт, №32, 2009 г.
- 4.9. Иноземцев В. Учится у Китая //Ведомости, 19.12.2009 г. – с 196.
- 4.10. Колесов В.П. Международная экономика: учебник. - М.: ИНФРА-М, 2004 г. – с 265.
- 4.11. Китай: секреты восходящего мирового лидера (часть 2). Александр В. Смирнов, 14.05.09 г. – с 297.

- 4.12. Ке Биншен. Китай в 2007-2008 годах: итоги, проблемы, перспективы. 17.03.2008,. Вступление Китая в ВТО: последствия и перспективы для сельского хозяйства. – с 299.
- 4.13. Ломакин В.К. Мировая экономика: Учебник для ВУЗОВ. - М.: Финансы, ЮНИТИ, 2004 г. – с 321.
- 4.14. Лабинская И. Китай: универсальная модель модернизации? //Мировая экономика и международные отношения, №7, 2009 г.
- 4.15. Муромсева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. - М.: ИДВ РАН, 2009 г. – с 258.
- 4.16. Международные экономические отношения: учебник / Н.Н.Ливенцев и др./ под ред. Н.Н.Ливенцева, - 2-е изд. перераб. и доп. - М.: ТК Велби, изд-во проспект, 2005 г. – с 304.
- 4.17. Мировая экономика и международный бизнес: учебник / кол. Авторы; под общ. ред. проф. В.В. Полякова и проф. Р.К. Щенина. 5-е изд. - М.: КНОРУС, 2008 г. – с 298.
- 4.18. Мировая экономика: глобальные тенденции за 100 лет. / Под ред. И.С. Королева. - М.: Юрист, 2003 г.
- 4.19. Мировая экономика: учебник / под ред. А.С. Булатова. 2-е изд. перераб. и доп. - М.: Экономистъ, 2008 г. – с 345.
- 4.20. Мировая экономика: учебник / под ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт-Издат, 2009 г. – с 312.
- 4.21. Михеев В. Китай: новые компоненты стратегии развития. //МЭиМО, №7, 2004 г.
- 4.22. Ни Сяолин. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009 г.
- 4.23. Потапов М. Вступление КНР в ВТО: условия присоединения и последствия для китайской экономики. Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. - М.: Международные отношения, 2004 г. – с 217.

- 4.24. Потапов М.А., Салицкий А.И., Шахматов А.В. Возрождение Азии: горизонты модернизации. - М.: ТЕИС, 2007 г. Селищев А.С., – с 245.
- 4.25. Селищев Н.А. Китайская экономика в XXI веке.- СПб.: Издательство «Питер». 2004 г. – с 318.
- 4.26. Титоренко М.Л. «Стратегия Китая по превращению супер индустриальную страну » - М., 2006 г. – с 297.
- 4.27. Швандар К.В. Прямые иностранные инвестиции в странах БРИК. //Банковское дело, № 02, 2008 г.
- 4.26. Экономическое развитие регионов: теоретические и практические аспекты государственного регулирования. Кузнецова О.В. - М.: Эдиториал УРСС, 2002 г. – с 257.

5. Xorijiy tildagi adabiyotlar

- 5.1. World Development Indicators. The World Bank, Washington, 2005, 2006, 2007, 2008, 2009, 2010.
- 5.2. World Investment Report. UNCTAD. New York, 2005, 2006, 2007, 2008.
- 5.3. Trade and Development Report. UNCTAD. New York, 2008, 2010.
- 5.4. World Trade Report, WTO, Switzerland, 2006, 2007, 2008
- 5.5. World Economic Outlook. IMF. Washington. 2007, 2008.
- 5.6. “Making globalization work for everyone” EU and World Trade, European Community, printed in Belgium.
- 5.7. European Union and Central Asia: “Strategy for a New Partnership”, Council of European Union, Belgium, October 2007.

6. Internet resurslar

- 6.1. www.gov.uz – Портал Государственной власти Республики Узбекистан.
- 6.2. www.mfer.uz – Официальный сайт Министерство внешнеэкономических связей, инвестиции и торговли Республики Узбекистан.
- 6.3. www.review.uz – Официальный сайт журнала “Экономическое

обозрение”.

- 6.4. www.cer.uz – Официальный сайт ЦЭИ.
- 6.5. www.uzreport.com – портал бизнес информации.
- 6.6. www.worldbank.org – Официальный сайт ВБ.
- 6.7. www.imf.org – Официальный сайт МВФ
- 6.8. www.exporthelp.europa.eu – Exporthelp Desk for Developing Countries.
- 6.9. www.ec.europa.eu – Official Web Site of European Commision.
- 610. http://ec.europa.eu/trade/issues/bilateral/regions/cis/index_en.html
- 6.11. <http://www.inogate.org/inogate/ru/resources>
- 6.12. <http://trade.ec.europa.eu/doclib/html/113409.html>
- 6.13. <http://trade.ec.europa.eu/doclib/html/113461.html>
- 6.14. <http://trade.ec.europa.eu/doclib/html/113453.html>
- 6.15. <http://trade.ec.europa.eu/doclib/html/113457.html>